1. Ab Saad, S. (2025). Improved Classification of Diabetic Retinopathy Stages based on Fused Predictors of Diabetes Mellitus Linked Diseases [Doctoral Thesis, Universiti Malaysia Perlis].

2. Masnan, M. J. (2017). Discriminant Analysis of Multi Level Data Fusion Based on Percentile Forward Feature Selection, [Doctoral Thesis, Universiti Utara Malaysia]. https://etd.uum.edu.my/id/eprint/7001

УДК 539.3

ELASTIK YARIM FAZODA QATTIQ SHARDA YASSI NOSTATSIONAR KO‘NDALANG TO‘LQIN DIFRAKSIYASI

Musurmonov E. A.[1], Ko‘charova A. R.[2], Shukurova Z. U.[3], Shukurov A. M.[4]
[1] Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston; elbekmusurmonov97@gmail.com
[2] Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston; azizakocharova01@gmail.com
[3] Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston; zevarshukurova89@gmail.com
[4] Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O‘zbekiston; shukurovamon@yandex.ru

Maqolada elastik yarim fazosida joylashgan qattiq sharda yassi nostatsionar ko‘ndalang to‘lqin difraksiyasi jarayoni matematik ifodalanib, bu jarayonga mos boshlang‘ich-chegaraviy masalaning yechish algoritmi ishlab chiqilgan.

Aytaylik, ($z \geq 0$) elastik yarim fazosida R radiusli qattiq shar joylashgan bo‘lsin. Yarim fazoning ($z = 0$) tekis sirtidan shar markazigacha bo‘lgan masofa h ga teng ($h > R$). Izotropik muhit va shar harakati O boshlang‘ich nuqtasi shar markazida bo‘lgan (r,θ,ϑ) sferik koordinatalar sistemasida o‘rganiladi.

Vaqtning boshlang‘ich $\tau = 0$ momentida shar sirtiga potensiali ψ_s bo‘lgan kuchlanishning yassi ko‘ndalang nostatsionar to‘lqini fronti

$$\psi_s(r, \theta, \tau) = f(\tau + r\cos\theta - 1)\mathrm{H}(\tau + r\cos\theta - 1) \tag{1}$$

kelib urinadi. Bu yerda $f(\tau)$– vaqt bo‘yicha potensialning o‘zgarishini beruvchi ixtiyoriy funksiya, $H(x)$ - Xevisaydning birlik funksiyasi.

Natijada qattiq shar markazidan o‘tuvchi o‘q atrofida muhit buralishi yuzaga keladi va muhitda ko‘ndalang to‘lqin tarqaladi. Bu holda ko‘chish vektorlarining faqat w komponentasi noldan farqli bo‘ladi.

Uning kuchlanish tenzori komponentalari bilan bog‘lanishi, ya‘ni Guk qonuni

$$\sigma_{r\vartheta} = \frac{1}{2}\left[\frac{\partial w}{\partial r} - \frac{w}{r}\right], \quad \sigma_{\theta\vartheta} = \frac{1}{2r}\left[\frac{\partial w}{\partial \theta} - wctg\theta\right] \tag{2}$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

Izotropik muhitning harakati vektor potensialning noldan farqli komponentasi ψ ga nisbatan to‘lqin tenglamasi [1]

$$\eta^2 \frac{\partial^2 \psi}{\partial \tau^2} = \Delta\psi - \frac{\psi}{r^2 \sin^2\theta} \tag{3}$$

to‘lqin tenglamasi bilan tasvirlanadi. Bu yerda Δ - Laplas operatori.

Izotropik ($z \geq 0$) yarim fazo sirti erkin sirt yoki qattiq tekislik bo‘lishi mumkin, ya‘ni

$$(\sigma_{r\vartheta} + \sigma_{r\vartheta s})|_{z=0} = 0 \; yoki \; (w + w_s)|_{z=0} = 0 \tag{4}$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

Shar sirtida chegaraviy shart

$$(w + w_s)|_{r=1} = 0, \quad w = \frac{\partial \psi}{\partial r} + \frac{\psi}{r}, \tag{5}$$

ko‘rinishga ega.

Boshlang‘ich shartlar bir jinslidir, ya‘ni

$$\psi|_{\tau=0} = \left.\frac{\partial\psi}{\partial\tau}\right|_{\tau=0} = 0. \tag{6}$$

Muhit chegaralanmagani uchun to‘lqin so‘nadi

$$\lim_{r\to\infty} \psi = 0. \tag{7}$$

(3) - (7) boshlang‘ich–chegaraviy masalaни yechishda τ vaqt bo‘yicha Laplas integral almashtirishlari va to‘liq bo‘lmagan o‘zgaruvchilarni ajratish usuli qo‘llanilgan [1]. Tasvirlar fazosida cheksizlikka to‘lqinning so‘nishi (7) shartni e‘tiborga olib, (3) tenglamaning yechimni $C_{n-1}^{3/2}(\cos\theta)$ Gegenbauer ortogonal ko‘phadlari bo‘yicha cheksiz qator ko‘rinishida izlaymiz [2].

(3)-(7) boshlang‘ich–chegaraviy masala Laplas integral almashtirishlari tasvirlar fazosida chiziqli algebraik tenglamalar cheksiz sistemasini yechishga keltirilgan:

$$\mathbf{M}_1\mathbf{A}z^2 + \mathbf{F}_1\mathbf{A}x - \mathbf{F}_2\mathbf{A}xz^2 = \mathbf{p}_1 z + \mathbf{p}_2 xz + \mathbf{p}_3 z^3 + \mathbf{p}_4 xz^3 \tag{8}$$

Bu yerda $\mathbf{M}_1$, $\mathbf{F}_1$ va $\mathbf{F}_2$ cheksiz matritsalar, $\mathbf{p}_l$ $(l = \overline{1,4})$ esa cheksiz vektorlar.

(8) sistemaning yechimni eksponentalar bo‘yicha cheksiz qator ko‘rinishida izlaymiz:

$$\mathbf{A}(s) = \sum_{i,j=0}^{\infty} \mathbf{a}_{ij}(s) x^i z^{-j+1}, \tag{9}$$

Bu yerda $\mathbf{a}_{ij}(s)$ lar elementlari $a_{ij}^{(n)}(s)$ bo‘lgan cheksiz noma‘lum vektor ustunlar.

(9) qator koeffitsiyentlari uchun rekurrent munosabatlar hamda ularga boshlang‘ich shartlar olingan bo‘lib, ular cheksiz sistemaning yechimini reduksiya metodidan foydalanmasdan topishga va $a_{ij}^{(n)}(s)$ elementlarni ratsional funksiyalar ko‘rinishda aniqlashga imkonini beradi.

Ko‘chish vektori va kuchlanish tenzori komponentasi uchun Laplas integral almashtirishlarining tasvirlar fazosida ifodalarni olingan. Ularning originallari qoldiqlar nazariyasi yordamida aniqlanadi [3].

Adabiyotlar

1. **Горшков А.Г., Тарлаковский Д.В.** *Нестационарная аэрогидроупругостъ тел сферической формы.* - М.: ФИЗМАТЛИТ, 1990. – 264 с.

2. **Кузнецов Д.С.** *Специальные функции.* - М.: Высшая школа, 1985. - 423 с.

3. **Лаврентьев М.А., Шабат Б.В.** *Методы теории функции комплексного переменного.* - М.: Наука, 1987. - 688 с.

Nonyuton suyuqliklarning nostatsionar oqimdagi tezlik taqsimoti

Navruzov K[1], Sharipova Sh. [2] , Aqmonova L. [3]

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, f-m.f.d, prof ;
qurol_46@mail.ru
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, PhD;
shshb1990@gmail.com
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, tayanch doktorant ;

Hozirgi davrda suyuqliklar mexanikasida nostatsionar jarayonlarni o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki ko‘plab real texnologik tizimlarda oqimlar statsionar emas, balki vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan xarakterga ega. Ayniqsa, nonyuton suyuqliklarning quvurlarda oqishi neft va gaz sanoati, polimer ishlab chiqarish, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va biologik tizimlar kabi sohalarda keng uchraydi. Ushbu jarayonlarni chuqur o‘rganish oqimlarni samarali boshqarish, energiya tejamkorligini ta‘minlash va texnologik jarayonlarni optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, nonyuton suyuqliklarning nostatsionar oqimidagi tezlik taqsimotini o‘rganish, ularni reologik xususiyatlariga qarab modellashtirish va oqim rejimlariga ta’sirini aniqlash maqsad qilingan.

Reologik murakkab suyuqliklarning harakatini tasvirlovchi tenglamalar sistemasi suyuqlikning “kuchlanishlar” shaklida berilgan harakat differensial tenglamalarini, reologik murakkab suyuqliklarning reologik holati tenglamalari va uzluksizlik tenglamasi bilan birgalikda sistema qilib olish orqali hosil qilinadi. Bu tenglamalar sistemasi o‘qqa nisbatan simmetrik oqim uchun quyidagicha aniqlanadi

$$\begin{cases} \rho\left(\dfrac{\partial u}{\partial t}+u\dfrac{\partial u}{\partial x}+v\dfrac{\partial u}{\partial y}\right)=\rho F_x-\dfrac{\partial p}{\partial x}+\left(\dfrac{\partial \tau_{11}}{\partial x}+\dfrac{\partial \tau_{12}}{\partial y}\right), \\ \rho\left(\dfrac{\partial v}{\partial t}+u\dfrac{\partial v}{\partial x}+v\dfrac{\partial v}{\partial y}\right)=\rho F_y-\dfrac{\partial p}{\partial y}+\left(\dfrac{\partial \tau_{21}}{\partial x}+\dfrac{\partial \tau_{22}}{\partial y}\right), \\ \dfrac{\partial u}{\partial x}+\dfrac{\partial v}{\partial y}=0. \end{cases} \tag{1}$$

Reologik murakkab suyuqlik modellari asosida suyuqlikning harakati laminar tarzda bo‘ladigan yassi kanallardagi nostatsionar oqimi masalalari yechiladi. Yassi kanal devorlari orasidagi masofa 2h deb belgilanadi, kanal yetarlicha uzun, deb faraz qilinib, reologik murakkab suyuqlik oqimi uchun xarakterli nisbiy uzunlik tanlanadi. Bunda kanal eni uzunligining bo‘ylama o‘q bo‘yicha uzunligiga nisbati cheksiz kichik miqdor deb hisoblanadi, shuning uchun oqimlarda ko‘ndalang tezliklar kichik miqdor bo‘ldi, x o‘qi quvur bo‘ylama o‘qi bo‘yicha gorizontal yo‘nalishda, y o‘qi esa x o‘qiga perpendikulyar holda vertikal yo‘nalishda olinadi.:

$$\begin{cases} \dfrac{\partial u}{\partial t}=-\dfrac{1}{\rho}\dfrac{\partial p}{\partial x}+\dfrac{1}{\rho}\dfrac{\partial \tau}{\partial y}, \qquad \dfrac{\partial p}{\partial y}=0, \\ \tau=\alpha_1\tau_1^0+\alpha_2\tau_2^0, \qquad \tau_1^0=\eta_1^0\dfrac{\partial u}{\partial y}, \\ \lambda\dfrac{\partial \tau_2^0}{\partial t}+\tau_2^0=\eta_2^0\dfrac{\partial u}{\partial y}, \qquad \eta=\alpha_1\eta_1^0+\alpha_2\eta_2^0. \end{cases} \tag{2}$$

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlarni quyidagicha ifodalaymiz. Buning uchun t=0 vaqtda suyuqlik tinch holatda, deb hisoblaymiz, ya‘ni

$$t = 0 \quad \Rightarrow \quad u = 0, \qquad \frac{\partial p}{\partial x} = 0. \tag{3}$$

Vaqtning noldan katta qiymatlarida kanalda o‘zgarmas bosim gradienti ta‘sirida suyuqlik oniy harakatga keladi, deb qaraladi, ya‘ni

$$t \geq 0 \ \text{ va } \ y = 0 \ \text{ da } \ \frac{\partial u}{\partial y} = 0; \quad t \geq 0 \ \text{ va } \ y = h \ \text{ da } \ u = 0; \quad \frac{\partial p}{\partial x} \neq 0. \tag{4}$$

$$\begin{aligned} u(y,t) = \frac{h^2}{2\eta}\left(-\frac{dp(x)}{dx}\right)\Bigg[\left(1-\frac{y^2}{h^2}\right) \\ + 32\sum_{n=0}^{\infty}\frac{(-1)^{n+1}\cos\left(\frac{2n+1}{2}\pi\frac{y}{h}\right)\,2e^{-\frac{\nu}{h^2}a_n t}}{(2n+1)^3\pi^3\left(M_2^2+N_2^2\right)} \\ \times\left(M_3\cos\left(b_n\tfrac{\nu}{h^2}t\right)+N_3\sin\left(b_n\tfrac{\nu}{h^2}t\right)\right)\Bigg]. \end{aligned} \tag{5}$$

$$\frac{u(0,t)}{u_0} = 1 + 32\sum_{n=0}^{\infty}\frac{2(-1)^{n+1}e^{-\frac{\nu}{h^2}a_n t}}{(2n+1)^3\pi^3\left(M_2^2+N_2^2\right)}\left(M_3\cos\left(b_n\tfrac{\nu}{h^2}t\right)+N_3\sin\left(b_n\tfrac{\nu}{h^2}t\right)\right). \tag{6}$$

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marx U., Wallis H. “Homan-on-a-Chip” developments: a translational cutting- edge alternative to systemic safety assessment and effecting evacuation in laboratory animals and man, ATLA 2012. Vol. 40. P. 235-257.

2. Navruzov K., Sharipova Sh.Tangential shear stress in oscillatory flow of a viscoelastic incompressible fluid in a plane channel Fluid Dynamics. – 2023. – T. 58. – №. 3. – C. 360-370.

Grid generation and mapping in the spectral-grid method for high-order singularly perturbed ODEs

Normurodov Ch.B., Murodov S.K.
Termez State University, Termez, Uzbekistan
ch.normurodov@gmail.com, smurodov870@gmail.com

Numerical simulation of a boundary value problem for an ordinary fourth-order differential equation with a small parameter with a higher derivative is an urgent problem in the field of computational and applied mathematics. The presence of a small parameter in the differential equations requires the development of adaptive numerical methods with high accuracy and efficiency. The numerical calculations for calculating the solution and its derivatives of various order show the high accuracy and efficiency of the spectral-grid method at different values of the small parameter, the grid elements and the total number of Chebyshev polynomials of the first kind.

Let us consider an ordinary fourth-order differential equation with a small parameter with the highest derivative:

$$\varepsilon\frac{d^4u}{d\eta^4} - 2\frac{d^2u}{d\eta^2} + u(\eta) = f(\eta),\ \eta \in (\eta_0, \eta_l), \tag{1}$$

with the following boundary conditions:

$$u(\eta_0) = \frac{du}{d\eta}(\eta_0) = 0,\ u(\eta_l) = \frac{du}{d\eta}(\eta_l) = 0, \tag{2}$$

Presence of a small parameter ε with the highest derivative imposes additional requirements on the approximation properties of the numerical methods used. To study the convergence and order of accuracy of the spectral-grid method, we will use the method of trial functions [1]. According to this method, a certain arbitrary function is chosen $u_e(\eta) = u_{exact}(\eta)$. Substituting it into the differential equation (1), we find the right side $f(\eta) = \varepsilon\frac{d^4u_e}{d\eta^4} - 2\frac{d^2u_e}{d\eta^2} + u_e(\eta)$ and require the fulfillment of boundary conditions (2).

To solve this problem with the spectral-grid method, we introduce a grid in the integration interval $\eta_0 < \eta_1 < \cdots < \eta_N = \eta_l$ and obtain N various elements:

$$[\eta_0, \eta_1], [\eta_1, \eta_2], \cdots, [\eta_j, \eta_{j+1}], \cdots, [\eta_{N-1}, \eta_N], j = 1, 2, \ldots, N-1.$$

The differential equation (1) on each of these elements takes the form

$$\varepsilon\frac{d^4u_j}{d\eta^4} - 2\frac{d^2u_j}{d\eta^2} + u_j(\eta) = f_j(\eta),\ j{=}1, 2, \ldots, N, \tag{3}$$

Boundary conditions (2) are written at points η_0 and η_N:

$$u(\eta_0) = \frac{du}{d\eta}(\eta_0) = 0,\ \mathrm{u}(\eta_N) = \frac{du}{d\eta}(\eta_N) = 0, \tag{4}$$

In the internal nodes of the grid, we require the continuity of the solution of equation (3) and its derivatives up to the third order. These conditions are as follows:

$$u_j^{(t)}(\eta_j) = u_{j+1}^{(t)}(\eta_j),\ t = 0, 1, 2, 3;\ j = 1, 2, \ldots,\ N-1, \tag{5}$$

where t is the order of the derivative.

The solution of problem (3)–(5) is sought in the form of a series of Chebyshev polynomials of the first kind. To do this, each element of the grid $[\eta_{j-1}, \eta_j]$ is mapped to the interval $[-1, 1]$ using the following replacement of the independent variable:

$$\eta = \frac{m_j}{2} + \frac{l_j}{2}y,\ m_j = \eta_j + \eta_{j-1},\ l_j = \eta_j - \eta_{j-1},\ j = 1, 2, \ldots, N, \tag{6}$$

where l_j is the length j of the mesh element. After transforming (6), equations (3) take the following form:

$$\varepsilon \cdot \left(\frac{l_j}{2}\right)^4 \frac{d^4u_j}{dy^4} - \frac{1}{2} \cdot \left(\frac{l_j}{2}\right)^2 \frac{d^2u_j}{dy^2} + u_j(\eta) = f_j(\eta), j = 1, 2, \ldots N. \tag{7}$$

From conditions (4)–(5) we have:

$$\begin{gathered} u_1(-1) = \frac{du_1}{dy}(-1) = 0,\ u_N(+1) = \frac{du_N}{dy}(+1) = 0, \\ \left(\frac{l_j}{2}\right)^t \frac{d}{dy}u_j^{(t)}(+1) = \left(\frac{l_{j+1}}{2}\right)^t u_{j+1}^{(t)}(-1), \\ t = 0, 1, 2, 3; j = 1, 2, \ldots,\ N-1. \end{gathered} \tag{8}$$

The following function is chosen as a test function:

$$u_e(\eta) = \left(1-\eta^2\right)^2 e^{\varepsilon\eta}.$$

, where $u_e(\eta) = u_{exact}(\eta)$. By using this test function, the differential problem (1)–(2) is solved by the spectral ($N = 1$) and spectral-grid method ($N \neq 1$) at different values of a small parameter[2].

Table 1 shows the result of calculations for calculating the maximum absolute errors $\Delta = \max\limits_{0\le l\le p_j}\left|u_e^{(t)} - u_a^{(t)}\right|, t = 0,1,2,3,4,\ j = 1,2,3,...,N$, in the nodes of Chebyshev polynomials of the first kind.

Table 1. Maximum absolute errors for the solution and its derivatives

Small parameter ε	M	N	Decision	First derivative	Second derivative	Third derivative	Fourth derivative
	40	1	$7.7 * 10^{-16}$	$1.5 * 10^{-15}$	$2.4 * 10^{-13}$	$1.8 * 10^{-10}$	$3.9 * 10^{-8}$
	40	2	$6.6 * 10^{-16}$	$5.1 * 10^{-15}$	$1.5 * 10^{-13}$	$4.2 * 10^{-11}$	$4.1 * 10^{-9}$
10^{-5}	40	4	$4.4 * 10^{-16}$	$2.2 * 10^{-16}$	$7.2 * 10^{-16}$	$3.6 * 10^{-14}$	$6.8 * 10^{-13}$
	40	8	$2.2 * 10^{-15}$	$9.7 * 10^{-16}$	$3.0 * 10^{-15}$	$2.6 * 10^{-14}$	$9.7 * 10^{-14}$
	40	1	$1.6 * 10^{-15}$	$1.1 * 10^{-14}$	$6.3 * 10^{-13}$	$8.6 * 10^{-10}$	$4.1 * 10^{-7}$
	40	2	$9.4 * 10^{-16}$	$8.4 * 10^{-15}$	$2.2 * 10^{-13}$	$7.0 * 10^{-11}$	$7.3 * 10^{-9}$
10^{-7}	40	4	$6.6 * 10^{-16}$	$4.9 * 10^{-16}$	$3.3 * 10^{-15}$	$1.8 * 10^{-13}$	$3.3 * 10^{-12}$
	40	8	$3.3 * 10^{-16}$	$2.6 * 10^{-16}$	$1.1 * 10^{-16}$	$5.7 * 10^{-16}$	$1.0 * 10^{-15}$
	40	1	$1.4 * 10^{-15}$	$3.9 * 10^{-14}$	$1.9 * 10^{-12}$	$2.8 * 10^{-9}$	$1.3 * 10^{-6}$
	40	2	$4.4 * 10^{-16}$	$1.1 * 10^{-15}$	$2.0 * 10^{-14}$	$6.3 * 10^{-12}$	$7.0 * 10^{-10}$
10^{-9}	40	4	$3.3 * 10^{-16}$	$3.8 * 10^{-16}$	$4.9 * 10^{-15}$	$2.7 * 10^{-13}$	$5.0 * 10^{-12}$
	40	8	$3.3 * 10^{-16}$	$1.9 * 10^{-16}$	$1.8 * 10^{-16}$	$7.4 * 10^{-16}$	$1.5 * 10^{-15}$

In here, M is total number of polynoms and N is number of mesh elements. From the numerical results given in Table 1, it can be seen that with a decrease in the value of the small parameter ε, the accuracy of calculating the higher derivatives in the spectral-grid method ($N \neq 1$) is much better in comparison with the spectral method ($N = 1$).

References

1. **Самарский А.А.** *Теория разностных схем.* – М.: Наука, 1977. – 656 с.
2. **Normurodov Ch.B., Murodov S.K., Shakaeva E.E.** *Spectral-grid approximation of an ordinary differential equation with a small parameter at the highest derivative.* Problems of Computational and Applied Mathematics, (2025). DOI:10.71310/pcam.2_64.2025.05

UDK 519.644

Ko‘p masshtabli usul va chegaraviy qatlamli singulyar qo‘zg‘algan masalalarning sonli modellashtirilishi

Normurodov Ch. B. [1], Xolmirzayeva N. A. [2]
[1] Termiz Davlat universiteti, f.-m.f.d., professor
[2]Termiz Davlat universiteti, tayanch doktorant
nigora.xolmirzayeva1988@gmail.com

Matematik fizika va muhandislik amaliyotida tez-tez uchraydigan differensial tenglamalarning ayrim sinflari kichik parametr ishtirokida aniqlanadi. Bu parametr yechimlarda keskin o‘zgarishlarga olib kelib, chegaraviy qatlamlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bunday masalalar singulyar buzilgan masalalar (singularly perturbed problems) nomi bilan mashhur. Oddiy perturbatsiya usuli kichik parametrlarni hisobga olishda samarali bo‘lsa-da, singulyar buzilgan masalalarda u ko‘pincha noto‘g‘ri natijalarga olib keladi. Bunga sabab shuki, oddiy kengaytirish orqali hosil qilingan yechim chegaraviy shartlarni to‘liq qanoatlantirmaydi. Chegaraviy qatlam nazariyasi esa ichki va tashqi yechimlarni alohida ko‘rib chiqib, ularni muvofiqlashtirish orqali yaxlit yechim hosil qiladi. Ko‘p masshtabli usul esa ushbu yondashuvlarni umumlashtirib, yechimni bir nechta o‘zgaruvchi miqyoslarda qidirishga imkon yaratadi. Quyida singulyar buzilgan chegaraviy masala uchun tashqi–ichki asimptotik yechimlar va ularning moslashtirilishi asosida kompozit yechim quriladi. Model masala sifatida quyidagidan foydalanamiz:

$$\varepsilon y''(x) + y'(x) = 1, \quad 0 < x < 1, \quad y(0) = 0,\ y(1) = 0, \quad 0 < \varepsilon \ll 1. \tag{1}$$

Tashqi yechim $\varepsilon \to 0$ da tenglama:

$$y_0'(x) = 1 \quad \Rightarrow \quad y_0(x) = x + C.$$

Chap chegara sharti $y(0) = 0$ dan $C = 0$. Demak,

$$y_{\text{out}}(x) = x.$$

Bu yechim $x = 1$ dagi shartni ($y(1) = 0$) bajarmaydi.

Ichki yechim O‘ng chegara yaqinida yangi masshtab:

$$\xi = \frac{1 - x}{\varepsilon}.$$

Shunda:

$$y' = -\frac{1}{\varepsilon} Y'(\xi), \qquad y'' = \frac{1}{\varepsilon^2} Y''(\xi).$$

Asl tenglama:

$$Y'' - Y' = \varepsilon.$$

Yetakchi tartibda:

$$Y_0'' - Y_0' = 0 \ \Rightarrow \ Y_0(\xi) = A + Be^{\xi}.$$

Barqarorlik uchun $B = 0$, demak $Y_0(\xi) = A$. Moslashtirish sharti: $A = 1$. Moslashtirilgan kompozit yechim:

$$y_{\text{comp}}(x) = y_{\text{out}}(x) + Ae^{-(1-x)/\varepsilon}.$$

Chegara sharti $y(1) = 0$ dan:

$$0 = 1 + A \quad \Rightarrow \quad A = -1.$$

Shunday qilib:

$$\boxed{y_{\text{comp}}(x) = x - e^{-(1-x)/\varepsilon}}$$

Asl masala uchun aniqlik:

$$\varepsilon v' + v = 1, \qquad v = y'.$$

Integrallab:

$$v(x) = 1 + Ce^{-x/\varepsilon}, \quad y(x) = x - C\varepsilon e^{-x/\varepsilon} + D.$$

Chegara shartlardan C, D topilib:

$$y_{\text{exact}}(x) = x + \frac{e^{-x/\varepsilon} - e^{-1/\varepsilon}}{1 - e^{-1/\varepsilon}}.$$

$\varepsilon \to 0$ da:

$$y_{\text{exact}}(x) \sim x + e^{-x/\varepsilon}.$$

Bu kompozit yechim bilan bir xil tartibda mos keladi. Tashqi–ichki asimptotik yondashuv va




Рис. 4: Kompozit asimptotik yechim va aniq yechimning taqqoslanishi.

moslashtirish orqali olingan kompozit yechim butun oraliqda yaxshi yaqinlashadi: markazda tashqi yechim ustun, o‘ng chegara yaqinida esa eksponentsial tuzatish chegaraviy qatlamni to‘g‘ri aks ettiradi. Bu ko‘p masshtabli/moslashtirilgan asimptotik metodning samaradorligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. **O‘malley.** *R. E. Singular Perturbation Methods for Ordinary Differential Equations.* -M.: Springer, 1991.

УДК 519.644

Optimal quadrature formula with derivative

Nuraliyev F.A.[2,3], Edilbekova R.M.[1,3]
[1]Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan;
[2]Tashkent International University, Tashkent, Uzbekistan;
[3]V.I. Romanovskiy Institute of Mathematics, Tashkent, Uzbekistan;
farxod.nuraliyev@teacher.tiu.uz

As is generally known, numerical integration formulae, or quadrature formulae, are methods for the approximate evaluation of definite integrals. They are needed for the computation of those integrals for which either the antiderivative of the integrand cannot be expressed in terms of elementary functions or for which the integrand is available only at discrete points, for example from experimental data. In addition and even more important, quadrature formulae provide a basic and important tool for the numerical solution of differential and integral equations. There are several methods of construction of optimal quadrature formulas in the sense of Sard such as spline method, $\varphi-$ function method and Sobolev's method which is based on construction of discrete analogue of a linear differential operator. In the different spaces, based on these methods, the Sard problem was investigated by many authors [1,2].

We consider the following quadrature formula with derivative

$$\int_0^1 \varphi(x)dx \cong \sum_{\beta=0}^{N} C_0[\beta]\varphi(h\beta) + \frac{h^2}{12}\left(\varphi'(0) - \varphi'(1)\right) + \sum_{\beta=0}^{N} C_1[\beta]\varphi'''(h\beta), \tag{1}$$

where $C_0[\beta] = \begin{cases} h/2\,; & \beta = 0, N \\ h; & \beta = \overline{1, N-1} \end{cases}$, $\varphi(x) \in L_2^{(m)}(0,1)$ and $C_1[\beta]$ are unknown coefficients of the quadrature formula (1), $L_2^{(m)}(0,1)$ is the space of functions which are square integrable with m-th generalized derivative.

The difference between the integral and quadrature sum obtained from the quadrature formula is referred to as the error of the formula

$$(l,\varphi) = \int_0^1 \varphi(x)dx - \sum_{\beta=0}^{N} C_0[\beta]\varphi(h\beta) - \frac{h^2}{12}\left(\varphi'(0) - \varphi'(1)\right) - \sum_{\beta=0}^{N} C_1[\beta]\varphi'''(h\beta). \tag{2}$$

From difference (2) it follows that quadrature formula (1) corresponds to the following error functional

$$l(x) = \varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^{N} C_0[\beta]\delta(x - h\beta) + \frac{h^2}{12}\left(\delta'(x) - \delta'(x-1)\right) + \sum_{\beta=0}^{N} C_1[\beta]\delta'''(x - h\beta), \tag{3}$$

where $\delta(x)$ is the Dirac delta-function and $\varepsilon_{[0,1]}(x)$ is the characteristic function of the interval $[0,1]$.

The norm in space $L_2^{(m)}(0,1)$ is defined by the following form

$$\|f\|^2_{L_2^{(m)}(0,1)} = \int_0^1 \left(f^{(m)}(x)\right)^2 dx.$$

In addition, the error functional (3) is required to satisfy the following conditions

$$(l(x), x^{\alpha}) = 0, \quad \alpha = 0, 1, 2, ..., m-1.$$

Error (2) based on the Cauchy-Schwarz inequality is estimated as follows

$$|(l, f)| \leq \|f\|_{L_2^{(m)}(0,1)} \cdot \|l\|_{L_2^{(m)*}(0,1)}.$$

Here, we have the following problems:

1. Find the norm of the error functional (3) of the quadrature formula (1).

2. Find the coefficients $C_1[\beta], \quad \beta = \overline{0, N}$, which give the smallest value to the norm $\|l\|_{L_2^{(m)*}}$ of the error functional (3), that is, calculating the value

$$\left\|\overset{\circ}{\ell}\right\|_{L_2^{(m)*}} = \inf_{C_1[\beta]} \|\ell_N\|_{L_2^{(m)*}}$$

Theorem. *The coefficients $C_1[\beta]$, $\beta = 1, 2, ..., N-1$ of the optimal quadrature formulas of the form (1) in the space $L_2^{(m)}(0,1)$ have the following form*

$$C_1[\beta] = h^4 \sum_{k=1}^{m-4} \left(a_k \lambda_k^{\beta} + b_k \lambda_k^{N-\beta}\right), \qquad \beta = 1, 2, ..., N-1.$$

References

1. **Sobolev S.L.** *Introduction to the theory of cubature formulas.* M.: Наука, 1974. — 808 p.
2. **Shadimetov Kh., Nuraliev F.** *Optimal formulas of numerical integration with derivatives in Sobolev space,* Journal of Siberian Federal University – Mathematics and Physics, 2018, 11(6), pp. 764-775.

UDK 519.652

System of equations for finding the coefficients of an algebraic hyperbolic natural spline of the eighth order

Nuraliev F. A.[1,2], Abdullaeva G. Sh.[2]
[1]Toshkent International University, Tashkent, Uzbekistan;
[2]V.I.Romanovskiy Institute of Mathematics, Tashkent, Uzbekistan;
farhod.nuraliyev@teacher.tiu.uz, gulruxshukurillayevna@gmail.com

Let be given the following class of functions:

$$K_{2,v}^{(3,4)} = \{f : [0,1] \to R, \ f''' \, is \, abs \, cont, \ f^{(4)} \in L_2(0,1)\}. \tag{1}$$

This space is a Hilbert space with the following inner product:

$$(f, g) = \int_0^1 (f^{(4)}(x) - v^2 f^{(2)}(x))(g^{(4)}(x) - v^2 g^{(2)}(x))dx. \tag{2}$$

The norm is defined by the inner product:

$$\|f\|^2 = \int_0^1 \left((f^{(4)}(x) - v^2 f^{(2)}(x))\right)^2 dx. \tag{3}$$

Then, the class $K_{2,v}^{(3,4)}$ is factorized Hilbert space with the norm (3). Let $0 = x_0 < .... < x_N = 1$ be a grid on the segment $[0,1]$, and the values $Y : y_0,\ y_1, ..., y_N$ be given in this grid. We consider the following problem:

Problem 1. Find a function $f \in K_{2,v}^{(3,4)}$ which gives minimum to the norm (3) and satisfies the interpolation conditions

$$f(x_i) = y_i,\ i = 0, 1, ..., N,\ x_i \in [0,1].$$

One of the functions that minimizes the norm in this space is an algebraic hyperbolic natural spline of order eighth, which is defined as follows.

Definition 1.

I. $S_\Delta(f,x)$ consists of a linear combinations of functions $\sinh vx$, $\cosh vx$, $vx\sinh v$, $vx\cosh vx$, x^3, $x^2, x,\ 1$ in every subinterval $(x_i, x_{i+1}),\ i = 0, 1, ..., N-1$.

II. $S_\Delta(f,x)$ is a linear combination of functions $\sinh vx$, $\cosh vx$, x, 1 in subintervals $(-\infty, a)$ and (b, ∞).

III. $S_\Delta(f,x)$ satisfies the following continuity and natural spline conditions

$$S_\Delta^{(\alpha)}(f, x_i - 0) = S_\Delta^{(\alpha)}(f, x_i + 0),\ \ \alpha = 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, \quad i = 1, 2, ..., N-1,$$

$$S^{(4+k)}(0) - v^2 S^{(2+k)}(0) = S^{(4+k)}(1) - v^2 S^{(2+k)}(1) = 0,\ k = 0, 1, 2,$$

IV. The function $S_\Delta(f,x)$ satisfies interpolation conditions

$$S_\Delta(f, x_i) = y_i,\ i = 0, 1, ..., N.$$

Using the above, we present the following theorem about the appearance of a natural spline, which is one of the solutions to Problem 1.

Theorem 1. *The natural spline, minimizing the norm in the space $K_{2,v}^{(4,3)}$, has the following form:*

$$S_\Delta(Y,x) = \sum_{i=0}^{N} C_i G_4(x - x_i) + d_1 \sinh(\nu x) + d_2 \cosh(\nu x) + p_0 + p_1 x, \tag{4}$$

where C_i, $i = 0, 1, ..., N, d_1, d_2$, p_0, p_1 are coefficients of the spline (4). $G_4(x)$ is the fundamental solution of the operator $\frac{d^8}{dx^8} - 2v^2\frac{d^6}{dx^6} + v^4\frac{d^4}{dx^4}$ and has the form

$$G_4(x) = \frac{sign(x)}{4v^7}(vx\cosh(vx) - 5\sinh(vx) + 2\sum_{k=1}^{2}\frac{(3-k)(vx)^{2k-1}}{(2k-1)!}), \tag{5}$$

where $\delta(x)$ is the Dirac delta-function.

The Coefficients of the natural spline satisfies the following system of the linear equations.

$$\sum_{i=0}^{N} C_i G(x_j - x_i) + d_1 \sinh(vx_j) + d_2 \cosh(vx_j) + p_0 + p_1 x = y_j,\ j = 0, 1, ..., N,$$

$$\sum_{i=0}^{N} C_i \sinh(vx_i) = 0,$$

$$\sum_{i=0}^{N} C_i \cosh(vx_i) = 0,$$

$$\sum_{i=0}^{N} C_i x_i = 0,$$

$$\sum_{i=0}^{N} C_i = 0.$$

References

1. **Ahlberg J.H., Nilson E.N., and Walsh J.L.,** *The theory of splines and its applications.* New York, 1967.

UDC 519.644

Coefficients of the optimal quadrature formula in $W_2^{(2)}(0,1)$ space

Nuraliyev F.A.[1,2], Ulikov Sh.Sh.[1,3], Kuziev Sh.S.[4]
[1]V.I.Romanovskiy Institute of Mathematics, Tashkent, Uzbekistan;
[2]Tashkent International University, Tashkent, Uzbekistan;
[3]Oriental University, Tashkent, Uzbekistan;
[4]Kokand University, Tashkent, Uzbekistan;
nuraliyevf@mail.ru, sh-ulikov@mail.ru

The formulation and main results of the theory of optimal quadrature and cubature formulas belong to S.L. Sobolev [1] who proposed a functional analytical method for a class of integrands from some Banach spaces. In large numerical calculations, difficulties arise in the process of approximate calculation of integrals, since universal methods for optimizing quadrature and cubature formulas on classes of functions have not yet been created and, in this regard, research on problems is being conducted from the point of view of different scientific directions. One of such directions is the functional-analytical approach, connected with the study of error estimates as a linear bounded functional over some Banach space of basic functions [2,3].

We consider the following quadrature formula

$$\int_0^1 \varphi(x)\,dx \cong \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\,\varphi(h\beta) \tag{1}$$

with error functional

$$\ell(x) = i_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^{N} k[\beta]\delta\,(x - h\beta), \tag{2}$$

where $k[\beta]$ and $(h\beta) \in [0,1]$ are the coefficients and nodes of the quadrature formula (1), $i_{[0,1]}(x)$ is the indicator of the interval $[0,1]$, $\delta(x)$ is the Dirac delta-function, and $\varphi(x)$ belongs to the Hilbert space $W_2^{(m)}(0,1)$ with the norm

$$\|\varphi\| = \left\{ \int_0^1 \left(\left(\frac{d^m \varphi(x)}{dx^m} \right)^2 + \left(\frac{d^{m-1} \varphi(x)}{dx^{m-1}} \right)^2 \right) dx \right\}^{1/2}.$$

In [3], an extremal function was found and using it, the following representation of the square of the norm of the error functional (2) was obtained:

$$\left\| \ell(x) \left| W_2^{(m)*}(0,1) \right\| \right\|^2 = (-1)^m \left[\sum_{\beta=0}^{N} \sum_{\gamma=0}^{N} k\,[\beta]\, k\,[\gamma]\, \mu_m(h\beta - h\gamma) \right.$$

$$\left. -2 \sum_{\beta=0}^{N} k\,[\beta] \int_0^1 \mu_m\,(x - h\beta)\, dx + \int_0^1 \int_0^1 \mu_m\,(x-y)\, dxdy \right], \tag{3}$$

where

$$\mu_m(x) = \tfrac{1}{2}\ \mathrm{sign}(x) \left(\tfrac{e^x - e^{-x}}{2} - \sum_{n=1}^{m-1} \frac{x^{2n-1}}{(2n-1)!} \right). \tag{4}$$

The error functional (2) satisfies

$$\ell(x^\alpha) = 0, \qquad \alpha = 0, \ldots, m-2. \tag{5}$$

Using the method of Lagrange multipliers, the following discrete WienerвЂ“Hopf type system was obtained for finding the coefficients:

$$\sum_{\gamma=0}^{N} k[\gamma]\, \mu_m(h\beta - h\gamma) + P_{m-2}(h\beta) = f_m(h\beta), \quad \beta = 0, \ldots, N,$$

$$\sum_{\beta=0}^{N} k[\beta](h\beta)^\alpha = \frac{1}{\alpha+1}, \quad \alpha = 0, \ldots, m-2,$$

where

$$f_m(h\beta) = \int_0^1 \mu_m(x - h\beta)\, dx, \qquad P_{m-2}(h\beta) = \sum_{j=0}^{m-2} b_j (h\beta)^j.$$

Teorema. *The coefficients of optimal quadrature formulas in space $W_2^{(2)}(0,1)$ are determined by*

$$k[\beta] = \begin{cases} \frac{h}{2} + a\frac{\lambda_1 - \lambda_1^N}{\lambda_1 - 1}, & \beta = 0, \\ h + a\left(\lambda_1^\beta + \lambda_1^{N-\beta}\right), & \beta = 1, \ldots, N-1, \\ \frac{h}{2} + a\frac{\lambda_1 - \lambda_1^N}{\lambda_1 - 1}, & \beta = N, \end{cases}$$

where

$$a = \frac{(e+1)\big[2(e^h - 1) - h(e^h + 1)\big](\lambda_1 - 1)(e^h - \lambda_1)(\lambda_1 e^h - 1)}{2\lambda_1 (e^h - 1)^2 \big[(\lambda_1^N + e)(\lambda_1 e^h - 1) - (\lambda_1^N e + 1)(e^h - \lambda_1)\big]},$$

$$\lambda_1 = \frac{h(1+e^{2h}) + 1 - e^{2h} - (e^h - 1)\sqrt{h^2(1+e^h)^2 - 2h(e^{2h}-1)}}{1 + 2he^h - e^{2h}}, \qquad |\lambda_1| < 1.$$

.

References

1. **Sobolev S.L.** *Introduction to the theory of cubature formulas.* Nauka, Moscow, 1974.
2. **Shadimetov Kh., Hayotov A.R., Akhmedov D.M.** *Optimal quadrature formulas for Cauchy type singular integrals in Sobolev space.* Applied Mathematics and Computation, 2015, 263, pp. 302-314.
3. **Shadimetov Kh.M., Nuraliev F.A., Azamov S.S., Ulikov Sh.Sh.** *Coefficients of Optimal Quadrature Formulas in the Space of Differentiable Functions* // AIP Conf. Proc. 3004, 060035 (2024). https://doi.org/10.1063/5.0200106

УДК 519.957

CHIZIQSIZ CHEGARAVIY SHARTLAR BILAN BERILGAN REAKSIYA-DIFFUZIYA SISTEMASI YECHIMLARINING ASIMPTOTIKASI

Raxmonov Z. R. Zaripova A.R. .[2]
[1] O‘zbekiston milliy universiteti, f.-m.f.d., professor
e-mail: zraxmonov@inbox.ru
[2]Qarshi davlat universiteti, tayanch doktorant
azizazaripova1990@mail.ru

Ushbu maqolada biz $Q = \{(x,t)\,,\, t>0,\, x \in R\}$ sohada quyidagi parabolik tipdagi buziluvchan tenglamalar sistemasi uchun

$$u_{it} = \left(\mid u_{ix}\mid^{p_i-2} u_{ix} \right)_x, \quad i = 1,2,\ldots,k, \quad x>0, \quad 0<t<T, \tag{1}$$

nochiziqli chegaraviy

$$-\mid u_{ix}\mid^{p_i-2} u_{ix}(0,t) = u_{i+1}^{q_i}(0,t), \quad i = 1,2,\ldots,k, \quad u_{k+1} = u_1, \quad 0<t<T, \tag{2}$$

hamda boshlang‘ich shartlar bilan berilgan

$$u_i(x,0) = u_{i0}(x), \quad i = 1,2,\ldots,k, \quad x>0, \tag{3}$$

masalaning avtomodel yechimlari asimptotikasini tadqiq etamiz. Bu yerda $p_i > 2, q_i > 0$ va $u_{i0} (i = 1,2,\ldots,k)$ funksiyalar $\mathbb{R}_+$ da manfiy bo‘lmagan kompakt yurituvchili uzluksiz funksiyalar.

Dastlab (1)-(3) masalani sonli yechish sxemasini quramiz.

Berilgan $Q = \{(t,x) : 0 \le t < T,\ 0 \le x \le b\}$ sohada vaqt va fazo bo‘yicha quyidagicha to‘r qurib olamiz: $\tau = \frac{T}{n}$, $h = \frac{b}{n}$ (1)-(3) masalani sonli usulda yechishimiz uchun oshkormas sxemadan foydalanamiz:

$$V_\tau = \{t_j = j\tau, \tau>0, j = 1,2,...,m;\ \ m\tau = T,\ \ T>0\}\,; S_h = \{x_i = ih; h>0; i = 1,2,...,n; nh = b\}$$

$$\begin{cases} \frac{y_i^{j+1}-y_i^j}{\tau} = \frac{1}{h^2}\left[D_{i+1}^j({y_{i+1}}^j)\left(y_{i+1}^{j+1} - y_i^{j+1}\right) - D_i^j({y_i}^j)\left(y_i^{j+1} - y_{i-1}^{j+1}\right)\right] \\ \frac{z_i^{j+1}-z_i^j}{\tau} = \frac{1}{h^2}\left[M_{i+1}^j(z_{i+1}^j)\left(z_{i+1}^{j+1} - z_i^{j+1}\right) - M_i^j(z_i^j)\left(z_i^{j+1} - z_{i-1}^{j+1}\right)\right] \end{cases} \tag{4}$$

$i = 2, ..., n-1; j = 0, 1, ..., m-1;\ y_i^0 = y(x_i, 0),\ z_i^0 = z(x_i, 0)$
$i = 0, 1, ..., n$

$$\begin{cases} -D_1(y_1) \cdot \frac{y_1^{j+1} - y_0^{j+1}}{h} = \left(z_0^j\right)^{q_1} \\ -M_1(z_1) \cdot \frac{z_1^{j+1} - z_0^{j+1}}{h} = \left(y_0^j\right)^{q_2} \end{cases} \tag{5}$$

$$\begin{cases} y_n^j = \varphi_1(t_j), \\ z_n^j = \varphi_2(t_j), \\ j = 2, 3, ..., m \end{cases} \tag{6}$$

(4) sistema y^{j+1} va z^{j+1} ga nisbatan chiziqsiz tenglamalar sistemasi. Sistemani sonli yechimlarini olishda uni chiziqlashtirish uchun oddiy iteratsiya usulida foydalanamiz:

$$\begin{cases} \frac{\overset{s+1}{y}{}_i^{j+1} - \overset{s}{y}{}_i^j}{\tau} = \frac{1}{h^2}\left[D_{i+1}^j(y_{i+1}^j)\left(\overset{s+1}{y}{}_{i+1}^{j+1} - \overset{s+1}{y}{}_i^{j+1}\right) - D_i^j(y_i^j)\left(\overset{s+1}{y}{}_i^{j+1} - \overset{s+1}{y}{}_{i-1}^{j+1}\right)\right] \\ \frac{\overset{s+1}{z}{}_i^{j+1} - \overset{s}{z}{}_i^j}{\tau} = \frac{1}{h^2}\left[M_{i+1}^j(z_{i+1}^j)\left(\overset{s+1}{z}{}_{i+1}^{j+1} - \overset{s+1}{z}{}_i^{j+1}\right) - M_i^j(z_i^j)\left(\overset{s+1}{z}{}_i^{j+1} - \overset{s+1}{z}{}_{i-1}^{j+1}\right)\right] \end{cases} \tag{7}$$

bu yerda $s = 0, 1, 2, ...$
Iteratsion usulning yaxshi natijasi mos boshlang‘ich yaqinlashishni tanlashga bog‘liq bo‘lib, u yechimga tez yaqinlashishni va masalaning fizik ma’nosini saqlanishini taminlaydi. Bunga mos boshlang‘ich yaqinlashish sifatida masalaning asimptotik yechimlarini tanlash mumkin. Har bir vaqt qadami uchun boshlang‘ich iteratsiya qiymatlari $\overset{s+1}{y}{}_i\}$, $\overset{s+1}{z}{}_i$ oldingi vaqt qadamidan olinadi:
$\overset{0}{y}{}^{j+1} = y^j,\ \overset{0}{z}{}^{j+1} = z^j.$

Takrorlanuvchi sxema yordamida hisoblashda takrorlashning aniqligi belgilanadi, bunda jarayon

$$\begin{cases} \max\limits_{0 \le i \le n} \left| \overset{s+1}{y}{}_i - \overset{s}{y}{}_i \right| < \varepsilon \\ \max\limits_{0 \le i \le n} \left| \overset{s+1}{z}{}_i - \overset{s}{z}{}_i \right| < \varepsilon \end{cases} \tag{8}$$

Quyidagi belgilashni kiritamiz: $\overset{-}{y}{}_i = y_i^{j+1}$, $\overset{-}{z}{}_i = z_i^{j+1}$. U holda (7) sistemalarini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin.

$$\begin{cases} \overset{s}{A}{}_{1i}\ \overset{s+1}{\overline{y}}{}_{i-1} - \overset{s}{C}{}_{1i}\ \overset{s+1}{\overline{y}}{}_i + \overset{s}{B}{}_{1i}\ \overset{s+1}{\overline{y}}{}_{i+1} = -\overset{s}{F}{}_{1i} \\ \overset{s}{A}{}_{2i}\ \overset{s+1}{\overline{z}}{}_{i-1} - \overset{s}{C}{}_{2i}\ \overset{s+1}{\overline{z}}{}_i + \overset{s}{B}{}_{2i}\ \overset{s+1}{\overline{z}}{}_{i+1} = -\overset{s}{F}{}_{2i} \end{cases} \tag{9}$$

bu yerda

$$\overset{s}{A}{}_{1i} = \frac{\tau}{h^2} D_i^j(\overset{s}{y}{}_i^j), \overset{s}{A}{}_{2i} = \frac{\tau}{h^2} M_i^j(\overset{s}{z}{}_i^j),$$

$$\overset{s}{B}{}_{1i} = \frac{\tau}{h^2} D_{i+1}^j(\overset{s}{y}{}_{i+1}^j), \overset{s}{B}{}_{2i} = \frac{\tau}{h^2} M_{i+1}^j(\overset{s}{z}{}_{i+1}^j),$$

$$\overset{s}{C}{}_{1i} = \frac{\tau}{h^2}\left(D_i^j\left(\overset{s}{y}{}_i^j\right) + D_{i+1}^j\left(\overset{s}{y}{}_{i+1}^j\right)\right) + 1, \overset{s}{C}{}_{2i} = \frac{\tau}{h^2}\left(M_i^j\left(\overset{s}{z}{}_i^j\right) + M_{i+1}^j\left(\overset{s}{z}{}_{i+1}^j\right)\right) + 1,$$

$$\overset{s}{F}_{1i} = \overset{s}{y}_i^j, \ \overset{s}{F}_{2i} = \overset{s}{z}_i^j.$$

Kesmaning $0 \le x \le b$ oxiridagi kerakli qiymatlarning qiymatlarini ikkinchi aniqlik tartibiga ega Milne (Милна) formulasi yordamida olish mumkin:

$$\left.\frac{\partial y}{\partial x}\right|_0 \approx \frac{-y_2 + 4y_1 - 3y_0}{2h}, \quad \left.\frac{\partial y}{\partial x}\right|_n \approx \frac{3y_n - 4y_{n-1} + y_{n-2}}{2h}, \tag{10}$$

$$\left.\frac{\partial z}{\partial x}\right|_0 \approx \frac{-z_2 + 4z_1 - 3z_0}{2h}, \quad \left.\frac{\partial z}{\partial x}\right|_n \approx \frac{3z_n - 4z_{n-1} + z_{n-2}}{2h}, \tag{11}$$

(10) chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi sonli yechimlarini olish uchun haydash usulidan foydalanamiz. Haydash usuliga ko‘ra:

$$\begin{cases} \bar{y}_i = \alpha_{1i}\bar{y}_{i+1} + \beta_{1i}, \\ \bar{z}_i = \alpha_{2i}\bar{z}_{i+1} + \beta_{2i} \end{cases} \tag{12}$$


bu yerda $\alpha_{1i}, \alpha_{2i}, \beta_{1i}, \beta_{2i}$ - koeffitsiyentlar, ularni quydagi formulalar yordamida hisoblab topiladi:

$$\begin{cases} \alpha_{1,i+1} = \dfrac{B_{1i}}{C_{1i} - \alpha_{1i}A_{1i}}, \\ \beta_{1,i+1} = \dfrac{A_{1i}\beta_{1i} + F_{1i}}{C_{1i} - \alpha_{1i}A_{1i}}, \end{cases} \quad \begin{cases} \alpha_{2,i+1} = \dfrac{B_{2i}}{C_{2i} - \alpha_{2i}A_{2i}}, \\ \beta_{2,i+1} = \dfrac{A_{2i}\beta_{2i} + F_{2i}}{C_{2i} - \alpha_{2i}A_{2i}} \end{cases} \tag{13}$$

bu yerda $i = 1, 2, ..., n$. $\alpha_{10}, \alpha_{20}, \beta_{10}, \beta_{20}$ qiymatlarini (11) chegaraviy shartlardan topiladi.

Yuqorida qurilgan sonli sxema yordamida hisoblash tajribasi o‘tkazildi. Biz uning ayrim natijalarini keltiramiz. Hisoblash uchun to‘r qadami $h = 0.05$ tugunlar soni $N = 300$ va iteratsiya aniqligi sifatida $\varepsilon = 10^{-5}$ olingan.

Topilgan asimtotikalar iteratsiya jarayoni uchun boshlang‘ich yaqinlashish sifatida olingan.



$1 - rasm.$ $(1) - (3)$ *masalaning sonli yechimi* :

$p_1 = 2.0101, \ \ p_2 = 2.0105, \ \ q_1 = 1.85, \ q_2 = 1.95$

$b = 6, \ \ a\_1, a\_2 = [1, 1], eps = 0.001$

Sonli hisoblash tajribalari shuni ko‘rsatdiki, iteratsiyon jarayonlar 3-5 qadamda yaqinlashadi. Boshlang‘ich yaqinlashish sifatida olingan kompakt yurituvchili avtomodel yechimlar asimptotikasi iteratsiyon jarayonning yaqinlashishi uchun muhim rol o‘ynadi. Yuqoridagi grafiklarda sonli parametrlarning berilgan qiymatlarida reaksiya-diffuziya jarayonlarining chekli tezlikda sodir bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Wu, Z.Q., Zhao, J.N., Yin, J.X. and Li, H.L** *Nonlinear Diffusion Equations, Singapore:* World Scientific, 2001.
2. **Levine, H.** *The role of critical exponents in blowup theorems:* SIAM Rev., 1990, 32(2): 262-288.
3. **Rakhmonov Z. R., Urunbayev J. E.,** *On a Problem of Cross-Diffusion with Nonlocal Boundary Conditions.* Journal of Siberian Federal University. Mathematics Physics, №–5, 2019, 614-620.
4. **Rakhmonov Z.R., Khaydarov A., Urunbaev J.E.** *Global Existence and Nonexistence of Solutions to a Cross Diffusion System with Nonlocal Boundary Conditions* Mathematics and Statistics, 2020, №–8(4), P. 404-409.

UDK 519.644

Nochiziqli chegaraviy shartli diffuziya sistemalarini sonli va analitik tadqiq etish

Raxmonov Z. R. .[1], Xolmirzayeva N. A. .[2]

[1] O‘zbekiston milliy universiteti, f.-m.f.d., professor
e-mail: zraxmonov@inbox.ru
[2]Termiz Davlat universiteti, tayanch doktorant
e-mail:nigora.xolmirzayeva1988@gmail.com

Mazkur maqolada nochiziqli chegaraviy shartlarga ega bo‘lgan diffuziya tenglamalari sistemasi ko‘rib chiqiladi. Bunday sistemalar ko‘plab fizik, biologik va texnik jarayonlarni modellashtirishda uchraydi. Tadqiqotda diffuziya tenglamalari uchun analitik va sonli yechimlar quriladi, ularning solishtirma tahlili o‘tkaziladi va hisoblash usullarining afzalliklari ko‘rsatib beriladi. Diffuziya tenglamalari fizikada issiqlik tarqalishi, kimyoviy reaksiya va massaning tarqalishini modellashtiruvchi asosiy tenglamalardan biridir. Ko‘pgina real masalalarda chegaraviy shartlar nochiziqli bo‘lib, bu esa masalaning analitik tahlilini murakkablashtiradi. Shu sababli sonli metodlardan keng foydalaniladi. Ko‘rib chiqiladigan masala:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = D\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \quad 0 < x < L,\ t > 0 \tag{1}$$

bu yerda $u = u(x,t)$– diffuziya maydoni funksiyasi, D– diffuziya koeffitsiyenti, L– soha chegarasi.

Boshlang‘ich va chegaraviy shartlar:

$$u(x,0) = f(x), \quad u(0,t) = f_1(u), \quad u(L,t) = f_2(u),$$

bu yerda $f_1(u)$ va $f_2(u)$– nochiziqli funksiya ko‘rinishida berilgan chegaraviy shartlardir.

Yechish usullari

Analitik yondashuv Agar chegaraviy shartlar nisbatan soddalashtirilsa, masalan $f_1(u) = \alpha u$, separatsiya usuli, Fourier usuli yoki Laplas transformatsiyasi yordamida yechim olish mumkin. Biroq umumiy hollarda bu metodlar bilan qiyin bo‘ladi.

Sonli yondashuv Nochiziqli chegaraviy shartlarga ega masalalar uchun *chekli ayirmalar usuli* yoki *Chebyshev spektral usuli* qo‘llaniladi. Ikkinchi tartibli hosilalar $\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ markaziy ayirmalar bilan almashtiriladi, va vaqt bo‘yicha Eylerning chap yoki o‘ng ayirmali sxemalari ishlatiladi. Ko‘rib chiqilgan tenglama:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \quad 0 < x < 1,\ t > 0, \tag{2}$$

boshlang‘ich va chegaraviy shartlar:

$$u(x,0) = x(1-x), \quad u(0,t) = \sin(u), \quad u(1,t) = e^{-u}.$$

Sonli parametrlar: $\Delta x = 0.05$, $\Delta t = 0.001$, $T = 1.0$.

C++dagi kodi

```
#include <iostream>
#include <cmath>
#include <vector>
using namespace std;

int main() {
    int N = 20;
    double L = 1.0, T = 1.0;
    double dx = L / N;
    double dt = 0.001;
    double mu = dt / (dx * dx);
    int steps = T / dt;

    vector<double> u(N+1), u_new(N+1);
    for (int i = 0; i <= N; ++i) {
        double x = i * dx;
        u[i] = x * (1 - x); // boshlang‘ich shart
    }

    for (int n = 0; n < steps; ++n) {
        u_new[0] = sin(u[1]);       // chap chegara
        u_new[N] = exp(-u[N-1]);    // o‘ng chegara
        for (int i = 1; i < N; ++i) {
            u_new[i] = u[i] + mu * (u[i+1] - 2*u[i] + u[i-1]);
        }
        u = u_new;
    }

    for (int i = 0; i <= N; ++i) {
        double x = i * dx;
        cout << "x = " << x << ", u = " << u[i] << endl;
    }
    return 0;
}
```

Natijalar

Sonli hisoblash orqali quyidagi qiymatlar olindi (jadvalda $t = 0.2$ va $t = 0.5$ uchun):

x	$u(x, 0.2)$	$u(x, 0.5)$
0.0	0.26035	0.35225
0.1	0.26789	0.36805
0.2	0.28148	0.38533
0.5	0.35860	0.44651
0.8	0.48105	0.51965
1.0	0.57588	0.57191




Рис. 5: $t = 0.2$ va $t = 0.5$ yechimlarining bir grafikda taqqoslanishi.

Sonli sxemaning barqarorligi Kourant mezoni orqali tekshirildi:

$$D\frac{\Delta t}{\Delta x^2} \leq \frac{1}{2}.$$

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, konvergensiya darajasi ikkinchi tartibli. Nochiziqli chegaraviy shartli diffuziya sistemalarining yechimi uchun sonli metodlar, ayniqsa chekli ayirmalar usuli samarali va barqaror yechim beradi. Analitik usullar esa faqat maxsus hollarda qo‘llanilishi mumkin. Bunday masalalarning tadqiqi fizik va texnik jarayonlarni modellashtirishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Samarskii A.A., Matus P.P., Vabishchevich P.N.** *Difference schemes for solving problems of mathematical physics* Nauka, 1995.
2. **Thomas J.W.** *Numerical Partial Differential Equations: Finite Difference Methods.* Springer, 1995.

УДК 311.21.378

GRAFLAR NAZARIYASINI BOSHQARUV JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHGA TATBIQINING NAZARIY ASOSLARI

Sakiyeva O. B.[1], Saidov J. N.[2]
[1]Termiz davlat universiteti,Termiz, O‘zbekiston;
ozodasakieva@gmail.com
[2]Termiz davlat universiteti 4-kurs talabasi,Termiz, O‘zbekiston
jorabeksaidov5@gmail.com

Graflar nazariyasi hozirgi vaqtda matematikaning jadal rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Bu ko‘pgina ob’ektlar va vaziyatlarning graf modellar sifatida tasvirlanganligi bilan izohlanadi. Agar foydalanish mumkin bo‘lsa, ko‘plab matematik muammolarni hal qilishda ularni soddalashtirilgan graf sifatida ko‘rsatish ularga aniqlik va soddalik beradi.

Bugungi kunda raqamlashtirish usullaridan foydalangan holda boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishda milliy sanoatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur, bu esa butun milliy iqtisodiyotning ham, har bir alohida xo‘jalik yurituvchi subyektning ham innovatsion rivojlanishini jadallashtiradi. Texnologik innovatsiyalarni qo‘llash va funksional tashkil etish talablari sanoat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu doirada mahalliy sanoatni raqamlashtirish ishlab chiqarish mashinalari, xavfsizlik tizimlari va sensorlarni birlashtirgan yagona tizimni ifodalaydi, bu turli jismoniy ob’ektlarni inson aralashuvisiz bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi mumkin bo‘lgan virtual tarmoqqa ulash imkonini beradi.

Keng ma’lumotlar oqimi biznesni tahlil qilish jarayonlari uchun yangi paradigma yaratdi, raqamli iqtisodiyotda ilg‘or tahliliy va kognitiv vositalar salohiyatini oshirdi. Katta ma’lumotlar va yangi texnologiyalar tashkiliy o‘zgarishlar va biznes jarayonlarini amalga oshirishga strategik yondashuvni talab qiladigan yangi turdagi boshqaruv tizimlarining paydo bo‘lishi uchun sharoit yaratdi. Yuqoridagilarni umumlashtirish uchun raqamlashtirish kontseptsiyasini amalga oshirish kontekstida real korxonalarda boshqaruv jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish va tahlil qilish korxonalarning boshqaruv faoliyatini takomillashtirish sohasida alohida ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarni joriy etish sharoitida korxonalarning ishlab chiqarish faoliyatini optimallashtirish usullarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Matematik modellashtirish yordamida yechimlarni optimallashtirish xato va noaniqlik ehtimolini yo‘q qiladi. Modellashtirishda qo‘llaniladigan matematik vositalar qatoriga graflar nazariyasi, to‘plamlar nazariyasi, matritsalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va boshqalar kiradi. Ular orasida graflar nazariyasi alohida qiziqish uyg‘otadi, u muammoning eng maqbul yechimini tanlash uchun ko‘rib chiqilayotgan tizimlarning butun xilma-xilligini vizual tarzda tasvirlash va tuzishga imkon beradi.

Graflar nazariyasi – diskret matematikaning graflarning xossalarini o‘rganuvchi va iqtisodiy masalalarni yechishda keng qo‘llaniladigan bo‘limi. Boshqaruv uchun ko‘plab afzalliklari tufayli u operatsion tadqiqotlarning mustaqil tarmog‘i sifatida ishlab chiqilgan. Graflar nazariyasining markaziy ob’ekti tugunlar va qirralardan tashkil topgan graf deb nomlanadigan matematik tushunchadir. Umuman olganda, har qanday kontseptual modelni barcha modellashtirish elementlarining qiymatlari (turi, tavsifi va boshqalar) yorliqlarga kiritilgan graf sifatida tasvirlash mumkin. Shunday qilib, graflar nazariyasi turli xil mavhum graflar shaklidagi muammolarni taklif qiladi. Graflar nazariyasining rivojlanishini 18-asrda L. Eyler faoliyatiga borib taqash mumkin bo‘lsa, graf algoritmlari ustida ish 1950-yillarda jiddiy boshlangan (masalan, Bellman-Ford-Mur algoritmi va eng qisqa yo‘llarni topish uchun Deykstra algoritmi).

Ushbu sinfning matematik modellari odatda chiziqli bo‘ladi, lekin, masalan, chiziqli dasturlash modellaridan farqli o‘laroq, ular tahlil qilinayotgan hodisalarni to‘liqroq tasvirlash, shuningdek, optimallashtirish jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beruvchi tizimli xususiyatlarga ega.

Graflar nazariyasiga ehtimollik usullarining kiritilishi, xususan, P. Erdos va A. Renining asimptotik ehtimollik haqidagi tadqiqotlarida graflar aloqasi, tasodifiy graflar nazariyasi deb nomlanuvchi boshqa sohaning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu yerda eksponensial tarmoqlar va kichikroq tarmoqlar topologiyasini ko‘rsatish uchun graflarning vizual tasviri qo‘llaniladi.

Tadbirkorlik faoliyati eng murakkab bo‘lgan korxonalarda ishlab chiqarish, investitsiya, transport va marketing dasturlarini ishlab chiqishda graflar va tegishli matematik modellardan foydalanish amaliy zarurat hisoblanadi.

Graflar nazariyasidan foydalanib, tadqiqotchilar ko‘plab amaliy optimallashtirish muammolarini hal qiladilar, shuningdek, tarmoq elementlarining xatti-harakatlarini va ularning o‘zaro ta’sirini, shu jumladan elementlarning klasterlar yoki tizimlarga birikmasini modellashtiradilar.

Shunday qilib, graflar nazariyasidan foydalanib ko‘plab optimallashtirish muammolarini hal qilish, yani grafli modellashtirish optimallashtirishning berilgan maqsadga erishish uchun yechimlar to‘plami bilan ifodalangan oqimlar va resurslar haqida ma’lumotlar yaratish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion korxonalarni rivojlantirish sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun samarali vosita sifatida graflardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi haqidagi taxminimizni tasdiqlaydi.

$$\|\varphi|\widetilde{L_2^{(m)}}\|^2 = \int\limits_0^1 \left(\frac{d^m}{dx^m}\varphi(x)\right)^2 dx.$$

Погрешностью квадратурной формулы называют разность

$$(\ell,\varphi) = \int\limits_0^1 \varphi(x)dx - \sum_{k=1}^{N}\sum_{\alpha=0}^{t} C_k^{(\alpha)}\varphi^{(\alpha)}(x_k) =$$

$$= \int\limits_{-\infty}^{\infty}\left[\left(\varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{k=1}^{N}\sum_{\alpha=0}^{t} C_k^{(\alpha)}(-1)^\alpha\delta^{(\alpha)}(x-x_k)\right) * \phi_0(x)\right]\varphi(x)dx$$

где $\delta(x)$— дельта функция Дирака, $\phi_0(x) = \sum\limits_{\beta}\delta(x-\beta)$,

$$\ell(x) = \left(\varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{k=1}^{N}\sum_{\alpha=0}^{t} C_k^{(\alpha)}(-1)^\alpha\delta^{(\alpha)}(x-x_k)\right) * \phi_0(x). \tag{2}$$

В настоящей работе результаты интегрированию периодических функций полученных функциональными методами из [1,2] обобщаются на случай составных квадратурных формул. Для квадрат нормы функционала погрешности (2) оптимальных квадратурных формул справедливы следующие теоремы.

Теорема 1. *Квадрат нормы функционала погрешности оптимальных квадратурных формул вида (1) при $t = 0,1$ имеет вид*

$$\|\mathring{\ell}|\widetilde{L_2^{(m)*}}(0,1)\|^2 = \frac{h^{2m}|B_{2m}|}{(2m)!}.$$

Теорема 2. *Квадрат нормы функционала погрешности составных квадратурных формул вида (1) при $t = 2$ имеет вид*

$$\|\mathring{\ell}|\widetilde{L_2^{(m)*}}(0,1)\|^2 = \frac{h^{2m}}{(2m)!}\left(|B_{2m}| - \frac{|B_{2m-2}|^2}{|B_{2m-4}|}\frac{(2m-1)2m}{(2m-2)(2m-3)}\right).$$

Литература

1. **Соболев С.Л.** *Введение в теорию кубатурных формул.* М.: Наука. - 1974. - 808 с.
2. **Shadimetov Kh.M., Mamatova N.H.** Lobachevskii Journal of Mathematics, 2024, Vol. 45, No. 2, pp. 839–850.

УДК 519.644

Квадрат нормы функционала погрешности весовых квадратурных формул в пространстве Соболева

Шадиметов Х.М., Турсунмурадов С.Т.
Ташкентский Государственный Транспортный Университет, Ташкент, Узбекистан;
kholmatshadimetov@mail.ru

Рассмотрим квадратурные формулы вида

$$\int_0^1 p(x)\,\varphi(x) \cong \sum_{\beta=0}^{N} C[\beta]\,\varphi[\beta], \tag{1}$$

с функционалом погрешности

$$\ell_N(x) = \varepsilon_{[0,1]}(x)\,p(x) - \sum_{\beta=0}^{N} C[\beta]\,\delta(x-h\beta), \tag{2}$$

здесь $p(x)-$ весовая функция. Требуется, чтобы интеграл от этой функции существовал в каком то смысле, т.е. $\int\limits_0^1 p(x)\,dx < \infty$, $\varphi(x) \in H_2^{(m)}(0,1)-$ пространство Соболева комплекснозначных функций со скалярным произведением и нормой, соответственно

$$(\psi,\varphi)_{H_2^{(m)}} = \sum_{n=0}^{m} \binom{m}{k} \frac{1}{\omega^{2k}} \int_0^1 \frac{d^k}{dx^k}\overline{\psi}(x)\,\frac{d^k}{dx^k}\varphi(x)dx, \tag{3}$$

$$\|\varphi\|_{H_2^{(m)}} = \left(\sum_{n=0}^{m} \binom{m}{k} \frac{1}{\omega^{2k}} \int_0^1 \frac{d^k}{dx^k}\overline{\varphi}(x)\,\frac{d^k}{dx^k}\varphi(x)dx\right)^{\frac{1}{2}}, \tag{4}$$

где $\omega \in \mathbb{R}$ и $\omega \neq 0$, $\overline{\psi}(x)$ сопряженная функция к функции $\psi(x)$, $C[\beta]$, $\beta = 0,1,...,N$ коэффициенты квадратурной формулы (1), $\varepsilon_{[0,1]}(x)$-характеристическая функция отрезка $[0,1]$, $\delta(x)$-дельта функция Дирака, $\binom{m}{k} = \frac{m!}{k!(m-k)!}$, $[\beta] = h\beta$, $h = \frac{1}{N}$, $N = 1,2,...$.

Следующая разность

$$(\ell_N,\varphi) = \int_0^1 p(x)\,\varphi(x)\,dx - \sum_{\beta=0}^{N} C[\beta]\,\varphi[\beta] = \int_R \ell_N(x)\,\varphi(x)\,dx \tag{5}$$

называется погрешностью квадратурной формулы (1).

Из неравенства Коши–Шварца

$$|(\ell_N, \varphi)| \le \left\|\ell_N|H_2^{(m)*}\right\| \cdot \left\|\varphi|H_2^{(m)}\right\|$$

видно, что абсолютное значение погрешности квадратурной формулы (1) оценивается с помощью нормы

$$\left\|\ell_N|H_2^{(m)*}\right\| = \sup_{\varphi,\ \|\varphi\|\neq 0} \frac{|(\ell_N, \varphi)|}{\left\|\varphi|H_2^{(m)}\right\|} \tag{6}$$

функционала погрешности (2) в сопряжённом пространстве $H_2^{(m)*}$.

Отсюда следует, что оценка погрешности квадратурной формулы (1) на комплекснозначных функциях пространства Соболева $H_2^{(m)}(0,1)$ сводится к нахождению нормы функционала погрешности (2) в сопряжённом пространстве $H_2^{(m)*}(0,1)$.

Для нахождения в явном виде нормы функционала погрешности $\ell_N(x)$ квадратурных формул в пространстве $H_2^{(m)*}(0,1)$ используется так называемая экстремальная функция данного функционала [1,2].

Определение (С.Л. Соболев) функция $\psi_{\ell,H}(x) \in H_2^{(m)}(0,1)$ называется экстремальной функцией данного функционала $\ell_N(x)$, если выполняется

$$(\ell, \psi_{\ell,H}(x)) = \left\|\ell_N|H_2^{(m)*}\right\| \cdot \left\|\psi_{\ell,H}|H_2^{(m)}\right\|. \tag{9}$$

Справедлива следующая теорема.

Теорема. *В пространстве Соболева $H_2^{(m)}(0,1)$ экстремальная функция функционала погрешности $\ell_N(x)$ задается формулой*

$$\psi_{\ell,H}(x) = \ell_N(x) * \varepsilon_m(x) = \int_0^1 \overline{p}(y)\,\varepsilon_m(x-y)\,dy - \sum_{\beta=0}^{N} \overline{C}[\beta]\,\varepsilon_m(x-h\beta), \tag{10}$$

где

$$\varepsilon_{m,\omega}(x) = \frac{\omega e^{-\omega|x|}}{2^{2m-1}(m-1)!} \sum_{k=0}^{m} \frac{(2m-k-2)!(2\omega)^k|x|^k}{k!\,(2m-k-1)!}. \tag{11}$$

$\overline{\ell}_N(x)$ - сопряженный функционал к функционалу $\ell_N(x)$, $\overline{p}(y)$ - сопряжённая функция к функции $p(y)$, $\overline{C}[\beta]$ - сопряжённый коэффициент к $C[\beta]$.

УДК 519.622

Дискретный аналог дифференциального оператора второго порядка с переменными коэффициентами

Шадиметов Х. М.[1,2], Эсанов Ш. Э.[3]

[1]Ташкентский государственный транспортный университет, Ташкент, Узбекистан;

[2]Институт математики им. В.И.Романовского , Ташкент, Узбекистан;

[3]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан;

kholmatshadimetov@mail.ru, esanovsher@mail.ru.

Дискретные аналоги дифференциальных операторов играют важную роль при построении оптимальных кубатурных, квадратурных, интерполяционных и разностных формул

в различных функциональных пространствах. Впервые построением дискретного аналога полигармонического оператора занимался С.Л. Соболев [1].

Нетрудно проверить, что функция

$$\mu(x) = \frac{e^{-|x|}}{4}(|x| - 1)$$

является фундаментальным решением следующего дифференциального оператора

$$L(x) = \frac{d^2}{dx^2} + 2\text{sign}x\frac{d}{dx} + 1,$$

т.е. является решением уравнения

$$L(x)\mu(x) = \delta(x),$$

где $\delta(x)$ - дельта-функция Дирака.

В этой работе мы будем построит дискретный аналог оператора L.

Этот дискретный оператор $L_h[\beta]$ является решением уравнения

$$L_h[\beta] * \mu_h[\beta] = \delta[\beta]. \tag{1}$$

Здесь свёртка определяется в виде

$$L_h[\beta] * \mu_h[\beta] = \sum_{\gamma=-\infty}^{\infty} L_h[\gamma] \cdot \mu_h[\beta - \gamma],$$

где

$$\mu_h[\beta] = \frac{e^{-|h\beta|}}{4}(|h\beta| - 1), \tag{2}$$

$\delta[\beta]$ - дискретная дельта-функция. Эта функция равна единице при $\beta = 0$, а в остальных целых β она равна нулю.

Справидлива следующая теорема.

Теорема. *Дискретный аналог $L_h[\beta]$ дифференциального оператора*

$$L = \frac{d^2}{dx^2} + 2\text{sign}x\frac{d}{dx} + 1$$

определяются формулами (3)-(5).

$$L_h[0] = \frac{4a_2}{a_1^2} - 8\cosh(h) + \frac{B_{1,1}}{\lambda_1}, \tag{3}$$

$$L_h[1] = L_h[-1] = \frac{2}{a_1} + B_{1,1}, \tag{4}$$

$$L_h[\beta] = B_{1,1}\lambda_1^{|\beta|-1}, \ |\beta| \geq 2. \tag{5}$$

Здесь

$$a_1 = h\cosh(h) + \sinh(h),$$

$$a_2 = h + \cosh(h)\sinh(h),$$

$$B_{1,1} = \frac{2\left(\lambda_1^2 - 2\cosh(h) + 1\right)^2}{a_1\lambda_1(\lambda_1 - \lambda_2)},$$

$$\lambda_1 = \frac{h + \sinh(h)\left(\cosh(h) - \sqrt{\sinh^2(h) - h^2}\right)}{h\cosh(h) - \sinh(h)}.$$

Литература

1. **Соболев С.Л.** *Введение в теорию кубатурных формул.* М.: Наука. - 1974. - 808 с.

УДК 519.644

Экстремальная функция периодического функционала погрешности быстроосцилирующих квадратурных формул

Шадиметов Х.М.[1,2] , Элмуратов Г. [1]
[1]Ташкентский государственный транспортний университет, Ташкент, Узбекистан;
[2]Институт математики им. В.И. Романовского, Ташкент, Узбекистан;
kholmatshadimetov@mail.ru

Интегралы быстроосцилирующих функций появляются в основном в теории специальных функций и анализе Фурье, но также и в других прикладных и вычислительных науках и технике, например, в теоритической физике (в частности, в теории рассеяния), акустическом рассеянии, квантовой химии, теории процессов переноса. Например, в последнее время весьма привлекательной задачей является численное решение интегрального уравнения Вольтерра второго (или первого) рода с сильно осцилирующим ядром.

Как известно, приближительное вычисление быстроосцилирующих интегралов

$$I_\omega = \int_0^{2\pi} \mathrm{e}^{i\omega x} f(x)dx, \tag{1}$$

где ω произвольное действительное число, играющего важную роль в вычислительной математике, наталкавается на определенные трудности при больщих значениях ω из-за того, что подинтегральная функция сильно осциллирует.

Пусть $\tilde{H}_m(0,2\pi)$ - гильбертого пространства 2π-периодических, комплекснозначных функций f, отличающихся друг от друга на константу, m-е производные которых (в обобщенным мысле) квадратично интегрируемы со скалярным произведениям

$$(f,g) = \int_0^{2\pi} \frac{d^m f(x)}{dx^m} \frac{d^m g(x)}{dx^m} dx. \tag{2}$$

Для $f(x) \in \tilde{H}_m$ рассмотрим следующую квадратурную формулу

$$\int_0^{2\pi} \mathrm{e}^{i\omega x} f(x)dx \cong \sum_{k=1}^{N} C_k f(\frac{2\pi k}{N}), \tag{3}$$

где C_k – коэффициенты квадратурный формулы, $N = 2, 3, \ldots$.

Погрешностью быстроосцилирующей квадратурной формулы (3) задаётся в следующим виде

$$\int_0^{2\pi} \mathrm{e}^{i\omega x} f(x)dx - \sum_{k=1}^{N} C_k f(\frac{2\pi k}{N}) =$$

$$= \int_0^{2\pi} \left[\mathrm{e}^{i\omega x} - \sum_{k=1}^{N} C_k \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \delta(x - \frac{2\pi k}{N} - 2\pi\beta) \right] f(x)dx = (l(x), f(x)). \tag{4}$$

Здесь, $\delta(x)$ – дельта-функция Дирака и

$$\ell(x) = \mathrm{e}^{i\omega x} - \sum_{k=1}^{N} C_k \sum_{\beta=-\infty}^{\infty} \delta(x - \frac{2\pi k}{N} - 2\pi\beta) \tag{5}$$

-периодический функционал погрещности быстроосцилирующих квадратурных формул.

Задача о построении оптимальной квадратурной формулы для интеграла (1) заключается в следующем.

Требуются решить следующих задач.

Задача 1. Вычислить норму функционала погрешности быстроосцилирующих квадратурных формул.

Задача 2. Найти минимум нормы функционала погрешности быстроосцилирующих квадратурных формул.

Известно, что в [1] квадрат нормы функционала погрешности квадратурных формул определяется формулой

$$\|\ell|H_m^*\|^2 = (\ell, U_\ell).$$

Здесь $U_\ell(x)$ – экстремальная функция функционала погрешности квадратурных формул.

В настоящей работе найдена экстремальная функция функционала погрешности (5).

Справедлива следующая теорема.

Теорема 1. *Экстремальная функция периодического функсионала погрешности $\ell(x)$ быстроосцилирующей квадратурной формулы вида (3) в пространстве $\tilde{H}_m(0, 2\pi)$ имеет вид*

$$U_\ell(x) = \frac{e^{-i\omega x}}{\omega^{2m}} - \sum_{k=1}^{N} \frac{\bar{C}_k}{2\pi} \sum_{\beta\neq 0} \frac{e^{i\beta(x-\frac{2\pi k}{N})}}{\beta^{2m}} + \nu.$$

Здесь $\bar{C}_k$ сопряженное число к C_k, ν – некоторая постоянная.

УДК 519.644

Оптимальные квадратурные формулы для быстроосцилирующих интегралов

Шадиметов Х. М. [1,2], **Уринбоев Р.** [2]

[1]V.I.Romanovskiy Institute of Mathematics, Tashkent, Uzbekistan;
[2]Tashkent State Transport University, Tashkent, Uzbekistan;
e–mail: kholmatshadimetov@mail.ru

Вариационным методом рассмотрим задачу об оптимальном вычислении весовой быстроосциллирующих интегралов.

Вычисление интеграла

$$I_{p,\alpha} = \int_0^1 x^\alpha e^{2\pi i p x} f(x) dx \tag{1}$$

или его многомерного аналога играет важную роль в вычислительной математике. Хорошо известно, что численное вычисление таких интегралов наталкивается на определенные трудности при больших значениях p из за того, что подинтегральная функция сильно осциллирует.

Вычисление интеграла (1) при $\alpha = 0$ часто выполняется методом Файлона. Метод Файлона напоминает квадратурную формулу Симпсона. Однако в то время, как в методе Симпсона вся подинтегральная функция заменяется параболой, в методе Файлона параболой заменяется только функция $f(x)$. Таким образом Файлон получил квадратурную формулу с коэффициентами, зависящими от p.

Рассмотрим квадратурную формулу вида

$$\int_0^1 x^\alpha e^{2\pi ipx}\varphi(x)dx \cong \sum_{\beta=0}^{N} C[\beta]\varphi[\beta],$$

с функционалом погрешности

$$\ell(x) = x^\alpha e^{2\pi ipx}\varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^{N} C[\beta]\delta(x-h\beta),$$

где $\alpha \geq 0$, $\varepsilon_{[0,1]}(x)$-характеристическая функция отрезка $[0,1]$, $C[\beta]$-коэффициенты квадратурной формулы, $\delta(x)$ - дельта функция Дирака.

Пусть $H^{(m)}(0,1)$ — гильбертово пространство комплекснозначных функций $\varphi(x)$, m-е производные которых (в обобщенном смысле) квадратично интегрируемы со скалярным произведением

$$(f,g)_m = \int_0^1 f^{(m)}(x)\,\overline{g^{(m)}}(x)\,dx.$$

Справедлива следующая теорема.

Теорема. В пространстве $H^{(m)}(0,1)$ следующая квадратурная формула является оптимальной

$$\int_0^1 x^\alpha e^{2\pi ipx}\,\varphi(x)\,dx \cong \sum_{\beta=0}^{N} \mathring{C}[\beta]\varphi(\beta).$$

При этом оптимальные коэффициенты $\mathring{C}[\beta]$ задаются формулой

$$\mathring{C}_\beta = \frac{h}{2}\left[2\sum_{n=0}^{\alpha}\frac{(-1)^n\alpha!}{(\alpha-n)!(2\pi i\omega)^{n+1}}\,D_1[\beta] * \left((h\beta)^{\alpha+1-n}e^{2\pi i\omega h\beta}\right)\right.$$
$$\left. - 2\sum_{n=0}^{\alpha}\frac{(-1)^n(\alpha+1)}{(\alpha+1-n)!(2\pi i\omega)^{n+1}}\,D_1[\beta] * \left((h\beta)^{\alpha+1-n}e^{2\pi i\omega h\beta}\right)\right].$$

Здесь $D_1[\beta]$ — дискретный аналог дифференциального оператора второго порядка:

$$D_1[\beta] = \begin{cases} 0, & \text{при } |\beta| \geq 2, \\ h^{-2}, & \text{при } |\beta| = 1, \\ -2h^{-2}, & \text{при } \beta = 0. \end{cases}$$

6 – SHO‘BA.MATEMATIKA VA INFORMATIKA O‘QITISH METODIKASI.

СЕКЦИЯ 6. МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ МАТЕМАТИКИ И ИНФОРМАТИКИ

УДК 515.55

Topologiya kursini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning haftalik dars rejasi

Akmurzayeva A. V.[1], Mamatov J. X.[2]
[1]Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Toshkent, Uzbekistan;
vaziraakmurzayeva446@gmail.com
[2]Jizzax Politexnika instituti, Jizzax, Uzbekistan;
johansson_world@mail.ru

Ushbu ishda topologiya kursini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning haftalik dars rejasini tuzish bo‘yicha metodik tavsiyalar asoslab berilgan. Tavsiya qilinayotgan reja 14 haftalik semestr uchun mo‘ljallangan. Har bir hafta: asosiy mavzu + interfaol metod + mustahkamlash usuli kabi rejalashtirilgan.

1-hafta. Topologiya faniga kirish.

Mavzu: To‘plamlar nazariyasidan takrorlash, topologik fazo tushunchasi.

Metod: Muammoli savol - "Nima uchun hozirgi zamonaviy matematikada metrik fazo tushunchasi yetarli emas?"

Amaliyot: Oddiy to‘plamlar ustida turli topologiyalar qurish.

2-hafta. Ochiq va yopiq to‘plamlar.

Mavzu: Ochiqlik aksiomalari, yopiq to‘plamlarning xossalari.

Metod: Flipped classroom - talabalar uyda nazariyani o‘qib keladi, darsda misollar yechadi.

Amaliyot: GeoGebrada ochiq va yopiq to‘plamlarni tasvirlash.

3-hafta. Baza va subbaza

Mavzu: Bazaning ta’rifi, oldbaza orqali topologiya hosil qilish.

Metod: Guruhli ishlash - har bir guruh berilgan to‘plam uchun turli bazalarni topadi.

Amaliyot: 2D va 3D fazolarda ochiq sharlar orqali bazani qurish.

4-hafta. Metrik fazolar va keltirilgan topologiya.

Mavzu: Metrik topologiyalar, keltirilgan topologiya.

Metod: Case-study - Internet tarmog‘i va yo‘l tarmoqlari topologiyasini muhokama qilish.

Amaliyot: Metrika yordamida topologiya hosil qilish bo‘yicha mashqlar.

5-hafta. Bog‘lanishlilik.

Mavzu: Bog‘lanishli fazo, chiziqli bog‘lanishlilik.

Metod: O‘yinlashtirish - "Bog‘lishli bo‘lmagan dunyo"kvesti: berilgan grafik/figuralarni bog‘lanishli yoki bog‘lanishli emasligini tekshirish.

Amaliyot: Myobius yaprog‘i va sfera kabilarda misollar yechish.

6-hafta. Kompaktlik.

Mavzu: Kompakt fazo, Geine-Borel teoremasi.

Metod: Muammoli vaziyat - "Cheksiz chiroqlarni qanday qilib bitta tugma bilan boshqarish mumkin?"(Kompaktlik metaforasi).

Amaliyot: [0,1] kesmada kompaktlikni isbotlash.

7-hafta. Uzluksizlik.

Mavzu: Topologik fazolar orasidagi uzluksiz akslantirishlar.

Metod: Matematik debat - "Uzluksizlik topologik ta'rifda qiyinroqmi yoki $\varepsilon - \delta$ orqali?"
Amaliyot: Oddiy funksiyalarning uzluksizligini topologik usulda tekshirish.
8-hafta. Fartor va Tixonov topologiyalari.
Mavzu: Fartor fazolar, Tixonov topologiyasi.
Metod: Matematik laboratoriya – Klein butilkasi va Torni qog‘oz orqali yasash.
Amaliyot: Dekart ko‘paytma ustida topologiya hosil qilish.
9-hafta. Ajrimlilik aksiomalari (T_1, T_2, T_3...)
Mavzu: Hausdorf fazolari.
Metod: Flipped classroom - talabalar aksiomalarni uyda o‘rganib keladi va ularni taqqoslaydi.
Amaliyot: Turli fazolarni ajramlilik aksiomalariga tekshirish.
10-hafta. To‘plamlarning zichligi va bazaviy xossalar.
Mavzu: Zich to‘plamlar, sanoqlilikning ikkinchi aksiomasi, Lindelyof sharti.
Metod: Case-study - "Ishonchli tarmoq topologiyasi qanday bo‘lishi kerak?"
Amaliyot: Yevklid fazosida ratsional sonlar zichligini isbotlash.
11-hafta. Gomomorfizmlar va gomeomorfizmlar.
Mavzu: Fazolar orasidagi gomeomorfizm tushunchasi.
Metod: Vizualizatsiya - rezina, ip va qog‘oz orqali obyektlarni cho‘zish va deformatsiya qilish.
Amaliyot: Kvadrat va doira orasida gomeomorfizm mavjudligini tekshirish.
12-hafta. Sanoqlilik aksiomalari va tadbiqlari.
Mavzu: Normal va regulyar fazolar.
Metod: Guruhli ishlash - guruhlar normal bo‘lmagan fazolarni topadi.
Amaliyot: Uryson lemmalarini misollarda qo‘llash.
13-hafta. Topologiyaning amaliy qo‘llanmalari.
Mavzu: Fizika, informatika va biologiyada topologiya.
Metod: Case-study - DNK zanjirining tugun nazariyasi.
Amaliyot: Internet marshrutlash topologiyasini grafiklar orqali modellashtirish.
14-hafta. Umumiy takrorlash va talabalarning ijodiy ishlari.
Mavzu: Butun kurs bo‘yicha umumlashtirish.
Metod: Ijodiy loyiha taqdimoti - talabalar o‘zlari tanlagan topologik obyektni 3D model, prezentatsiya yoki video tarzida himoya qiladi.
Amaliyot: Qisqa viktorina + ochiq muhokama.

Qo‘shimcha tavsiyalar: Har hafta yakunida talabalar "Bugun nimani o‘rgandim?"degan savolga javob yozish. Onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom) orqali mini-testlar yechish. 7- va 14-haftalarda "yarim semestr"va "yakuniy interfaol test"o‘tkazish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. **Diego Vizcaнno, Victor Vargas, Adriana Huertas** *Teaching of Topology and its Applications in Learning: A Bibliometric Meta-Analysis of the Last Years from the Scopus Database* Москва, ФИЗМАТЛИТ, 2006, 117.

KO‘PHADLAR UCHUN UMUMLASHGAN BE’ZU TEOREMASI

Allakov I.[1)], Xudoyberdiyev S.[2)], Akromova S.[3)]
[1)]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston
iallakov@mail.ru
[2),3)]Termiz davlat universiteti, Matematika yo‘nalishi talabalari.

Algebra kursida ko‘phadlarni bo‘lish amali va natijada hosil bo‘ladigan qoldiq masalasi muhim o‘rin egallaydi. Har qanday ko‘phadni $x-a$ ga bo‘lgandagi qoldiqni *Bezu teoremasi* yordamida oson aniqlash mumkin [1]. Ammo bo‘luvchi darajasi ikkinchi darajali bo‘lganda, masalan x^2+bx+c, qoldiq topish ancha murakkablashadi. Ushbu ishda biz aynan shunday holatlar uchun qulay formulani ishlab chiqamiz.

Faraz qilaylik $P(x)$ — darajasi $n \geq 2$ bo‘lgan ko‘phad bo‘lsin. Bu ko‘phadni x^2+bx+c uch hadga bo‘laylik:

$$P(x) = (x^2+bx+c)\,Q(x) + R(x), \tag{1}$$

bu yerda $R(x)$ — qoldiq ko‘phad.

Ko‘phadlar uchun qoldiqli bo‘lish haqidagi teoremaga asosan qoldiqning darajasi bo‘luvchining darajasidan kichik bo‘lishi kerak [2], shuning uchun:

$$R(x) = Ax + B,$$

bu yerda A, B — noma’lum sonlar. Endi biz A va B ni topamiz.

Agar x_1 va x_2 sonlari $x^2+bx+c=0$ tenglamaning ildizlari bo‘lsa, u holda Viyet teoremasiga asosan [3]:

$$x_1 + x_2 = -b, \quad x_1 \cdot x_2 = c$$

o‘rinli bo‘ladi. (1) ga asosan quyidagi tenglik o‘rinli:

$$P(x_i) = R(x_i), \quad (i = 1, 2),$$

ya’ni:

$$P(x_1) = Ax_1 + B, \quad P(x_2) = Ax_2 + B.$$

Bu ikki tenglikdan A va B ni topamiz:

$$\begin{cases} Ax_1 + B = P(x_1), \\ Ax_2 + B = P(x_2). \end{cases}$$

Sistemadan A va B ni topib

$$A = \frac{P(x_1) - P(x_2)}{x_1 - x_2}, \quad B = \frac{x_1P(x_2) - x_2P(x_1)}{x_1 - x_2} \tag{2}$$

ga ega bo‘lamiz. Shunday qilib, qoldiq ko‘phad

$$R(x) = \frac{P(x_1) - P(x_2)}{x_1 - x_2}\,x + \frac{x_1P(x_2) - x_2P(x_1)}{x_1 - x_2.}$$

ga teng.

Misol. Ko‘phadni $P(x) = x^4 + 2x^3 + 3x^2 + 4x + 5$ ni $x^2 + x + 1$ ga bo‘laylik.

Bu holda $b = 1, c = 1$, demak

$$x_{1,2} = \frac{-1 \pm i\sqrt{3}}{2}.$$

(2) ga asosan:

$$A = \frac{P(x_1) - P(x_2)}{x_1 - x_2}, \quad B = \frac{x_1 P(x_2) - x_2 P(x_1)}{x_1 - x_2}.$$

Bundan $A = 2$, $B = 4$ kelib chiqadi. Demak, qoldiq: $R(x) = 2x + 4$ va

$$P(x) = (x^2 + x + 1)(x^2 + x + 1) + 2x + 4$$

tenglik bajariladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Allakov I.** *Algebra I (o‘quv qo‘llanma).* Termiz. «Surxon-Nashr» nashriyoti 2024. 332 b.
2. **Ayupov Sh.A., Xudoyberdiyev A.X., Omirov B.** *Algebra (darslik)* Fizika, matematika va informatika. 2003, №3, 25-33 b.
3. **Allakov I.** *Sonlar nazariyasidan misol va masalalar (yechimlari bilan).* Termiz. «Surxon-Nashr» nashriyoti 2020.
4. **Erdonov B.X.** *Ba’zi murakkab sonlarning bo‘linish belgilari va mavjud bo‘linish belgilariga yangicha yondashuv.* NamDU ilmiy axborotnomasi. 2023. №12, 509-513 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYA MUHITIDA INTEGRATIV YONDASHUV VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Avliyoqulov A. A.[1]
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, Uzbekistan;
avliyoqulov 2017@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev o‘z asarlarida ta’kidlaganlaridek: - "Bizning navqiron avlodimiz manfaatlarini ta’minlash borasidagi faoliyatimiz yaqinda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi Qonun asosida qat’iy davom ettiriladi"[1; 26]. Zero, kelajak har tomonlama bilimdon, zukko va salohiyatli yoshlar qo‘lida. Mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, intellektual jihatdan rivojlangan, o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishda tarixiy materiallardan, rivoyat va xalq maqollaridan suhbat asosida misollar keltirib dars mashg‘ulotlarini olib borish o‘quvchilarni aniq va tabiiy hamda ijtimoiy fanlariga bo‘lgan qiziqishlari ortishiga zamin yaratadi. Shunday vazifalardan biri raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o‘qitishda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish yangi bir vaqtning o‘zida bir fanni bir necha fan bilan bog‘lagan holda yanada sermazmun dars o‘tish metodikasini tashkil qilishni takomillashtirish iboratdir. Umumta’lim maktablarida raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish bugungi kunning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Integratsiyalashgan metodlardan foydalanish orqali bir qancha yutuqlarga erishish bilan bir qatorda, kamchiliklarga yo‘l qo‘yish ehtimoli yo‘q emas. "Agar o‘quvchilarning psixologik va aqliy imkoniyatini hisobga olmasak, uning uchun murakkab terminlardan foydalansak, o‘quvchi saviyasi doirasidan chetga chiqsak, unda aqliy zo‘riqish, mavzuni umuman tushunmaslik oqibatlariga olib keladi"[2; 65-b.]. Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o‘qitishda integrativ yondashuv asosida tashkil etishning shakli va mazmunidan kelib chiqib fanning xususiyatini hisobga olgan holda o‘quvchilarga bilim berish tavsiya etiladi. "Integrativ ta’lim oddiydan murakkabga, bilishdan-ilmga, tartibsizlikdan-uyg‘unlikka, chanqoqlikdan mohirlikka va ijodga bo‘lgan harakatni taklif

qiladi"[3; 69-b.]. Raqamli texnologiyalar muhitida fanlarni integrativ yondashuv asosida tashkil etish boshqa fanlar doirasida o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi va ularni bilim darajasini to‘ldirishga yordam beradi. Biz yuqorida keltirgan integrativ yondashuv vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanish yuqori samara beradi.

Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o‘qitishda integrativ yondashuv metodikasining quyidagi konseptual metodik asoslari mavjud:

- raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o‘qitishda so‘nggi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;

- o‘quvchilarga raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv metodikasi mazmuni, tarkibi va asosiy muammolari bo‘yicha ma’lumotlar berish hamda ularni mazkur fanda kompetensiyalarini oshirishga ko‘maklashish;

- ta’lim-tarbiya jarayonida fanning mazmuni, funksiyalari, tarkibiy qismlarini yoritish va ulardan foydalanish mahoratini takomillashtirish.

Umumta’lim maktablarida raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasida o‘quvchilar bilim va kompitentligiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalarni xalqaro qiyosiy tahlili asosida o‘qitish hamda raqamli texnologiyalar vositasida fanlar sohasiga oid yangi konsepsiyalar va o‘quv adabiyotlarni tahlil qilish;

- raqamli texnologiyalar vositasida fanlardagi yangi tendesiyalarni mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga tushuntirib bera olish hamda raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni tizimlashtirish, aniq, tushunarli ravishda bayon etish;

- modulli yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil etish hamda raqamli texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish lozim. Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitish metodikasida quyidagi shakllardan foydalanildi:

- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan masala yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosa chiqarish);

- bahs va munozaralar (misol va masalalar yechimi bo‘yicha asosli mulohaza yuritish, eshitish va yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishdan maqsad - o‘quvchilarning tafakkur va madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan birga o‘rganilgan bilimlarni hayotga tadbiq etishga o‘rgatishdan iboratdir. Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi quyidagi ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

-raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish dasturlarini moslashtirish; boshqa fanlarda raqamli texnologiyalar vositasida fanlar qonuniyatlar metodikasini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan materiallardan foydalanish.

Raqamli texnologiyalar deyarli barcha fanlar bilan bog‘liq bo‘lib barcha fanlar uchun asos hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar vositasida fanlardan nazariy bilimlarni berish, tegishli tushunchalar, tasdiqlar, isbotlash metodikasini o‘rgatish, olgan nazariy bilimlarini masalalar yechishga tatbiq eta bilish ularda mantiqiy mushohada qilish, fazoviy tasavvur hamda abstrakt tafakkur kabi innovatsion faoliyatining barcha sohalari uchun zarur bo‘lgan qobiliyatni shakllantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **SH. Mirziyoyev** *Oliy Majlisga Murojaatnomasi* Toshkent shahri. - 2020. - 01. 24.1-2 bet.
2. **Shorustamova D.S.** *Boshlang‘ich ta’lim darslarini integrasiyalashda pedagogik-psixologik*

yondashuv. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2014 yil. 98 bet.
3. **Avliyoqulov A** *Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni integratsiya asosida o'qitishning nazariy asoslari.* "O'zMU xabarlari"jurnali. T. 2025 y. №2. 56 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA V-VI SINFLARNI INTEGRATIV YONDASHUVLAR ORQALI O'QITISH METODIKASI

Avliyoqulov A. A.[1]
[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, Uzbekistan;
avliyoqulov 2017@gmail.com

Respublikamiz umumta'lim maktablarida raqamli texnologiyalar vositasida fanlarning amaliy ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarning integratsiyalashuvi, mantiqi va izchilligi, ularni eng zamonaviy boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberlashtirish bo'yicha jiddiy ehtiyojlar sezilmoqda. Yangi-yangi uyg'un fikr-g'oya esa o'quvchilarni raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni puxta o'zlashtirishlarida, kelgusi faoliyatlarida samarali foydalanish hamda ijodiy yondashishni ta'minlashga qaratilgan asosiy vazifalardan biridir.

Raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o'rganishda o'quvchilar o'zlarining fikr-mulohazalarini aniq, mazmunli tarzda bayon etishga odatlanishlari, yozuvlarni tushunarli va savodli bajarish malakalari shakllanadi. Umumta'lim maktab V-VI sinflarida raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuvlar vositasida o'qitish jarayonida ijobiy natijalarga erishish bilan birga amaliyotda qo'llash muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Fanlararo integratsiya tushunchasi turli pedagogik va o'qitish uslibiyotiga oid boshqa adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. "Ayrim manbalarda fanlararo aloqadorlik texnologiyasi, sinergetik texnologiya, fanlararo integratsiya tarzida bayon qilinadi"[1; 18-b.]. Umumta'lim maktab V-VI sinflarda raqamli texnologiyalar vositasida fanlar darslarini integrativ yondashuv asosida o'qitishni ta'minlash bugungi kunning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu masala ta'lim tizimida integrativ yondashuv asosida raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni uzviyligini ta'minlash metodikasi muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar vositasida fanlar turdosh fanlarning poydevori bo'lib hisoblanadi, ular negizida yangi-yangi fan bo'limlari paydo bo'lmoqda, ularni o'zlashtirishda ko'pgina tushunchalar aql, ong bilan idrok etishni talab etmoqda. Shu tariqa, uzviylik asosida tashkil etilgan integrasiya fanlar ta'limi mazmunining asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. "Ta'lim sohasidagi siyosatni isloh qilishdagi asosiy ustuvor vazifalar raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o'qitishda integrativ yondashuv asosida tashkil etishning shakli va mazmunidan kelib chiqib fanning xususiyatini hisobga olgan holda o'quvchilarga bilim berish tavsiya etiladi"[2; 4-b.]. Ta'lim har doim komil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi metodikalari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki, o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchilar darslarni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga va integrativ metodlarga yondashgan holda dars o'tishga katta e'tibor berishimiz lozim. Bu esa umumta'lim maktab V-VI sinflarida raqamli texnologiyalar vositasida darslarni ketma-ketlik va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi hamda ushbu fanning uslubiy jihatdan uzviy va mantiqiy bog'liqlik asosida tashkil etish esa o'quvchilarni keyingi sinflarda bilim olishlari uchun zamin yaratadi. Ta'limdagi integratsiya - bu ta'lim

oluvchilarning bilim darajasini rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish dunyodagi yaxlit ko‘rinishini shakllantirish uchun ma’lum bir ta’lim tizimni tarkibiy qismlari o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish jarayoni. "Integratsiya ta’limdagi murakkablikni engillashtirishga, tizimlilikka o‘rgatadigan jarayondir"[3; 447-b.]. Umumta’lim maktab V-VI sinflarda raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni o‘qitishda integrativ yondashuv maqsad va mazmunini belgilash jarayonlarini ko‘rib chiqamiz: Maqsadli jarayon - umumta’lim maktab V-VI sinf o‘quvchilariga raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv metodikasi asosida o‘qitish o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, fan darsliklari bilan mustaqil ishlash tajribasini oshirish va olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishdan iborat; Metodologik jarayon - umumta’lim maktab V-VI sinf o‘quvchilariga raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishda o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va o‘quvchilar subektivlik, tizimlilik, hamkorlik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, mustaqillik tamoyillariga ega bo‘lishlaridan iborat; Baholash jarayon - o‘qituvchi tomonidan V-VI sinf o‘quvchilarini raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni motivatsion va kognitiv usulda o‘zlashtirgan bilimlarini yuqori, o‘rta, pastga darajada baholash, sifat va samaradorlik hamda natijadorlikka erishishdan iborat. Tashkiliy-mazmunli jarayon - umumta’lim maktab V-VI sinf o‘quvchilariga raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv metodikasi asosida o‘qitish. Umumta’lim maktab V-VI sinf o‘quvchilariga raqamli texnologiyalar vositasida fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishning modeli metodologik, tashkiliy mazmunli bloklar va monitoring blokini o‘z ichiga oladi. Maqsadli blok o‘quvchilarning o‘quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish funksiyasining maqsadi, vazifalari, tamoyillaridan iborat. Mazmunli blok pedagogik ta’sirlarning ichki tuzilishi va yo‘nalishlarini belgilaydi. Mazmunli blokni ajratishda biz tomondan aniqlangan omillarga asoslanildi, bunda hamrohlikni, ularning yanada samarali moslashuv hamda moslashuv jarayonini sekinlashtiradigan yoki unga to‘sqinlik qiladigan omillarning salbiy ta’sirini minimallashtirishga yordam beradigan konstruktiv salohiyatidan foydalanishga yo‘naltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Amrullayeva B.A.** *VI sinflarda tabiiy fanlar (Sciense)ni o‘qitish metodikasi.* "Afzalzoda books"nashriyoti. Toshkent. 2023 yil. 118 bet.
2. **Avliyoqulov A** *Umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarni integratsiya asosida o‘qitishning nazariy asoslari.* "O‘zMU xabarlari"jurnali. T. 2025 y. №2. 56 b.
3. **Avliyoqulov A.** *Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda integrativ yondashuvlarning konseptual asoslari.* "Xalq ta’limi"ilmiy-metodik jurnali. Toshkent. 2023 yil. 4-son, 177 bet.

TALABALARNING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA GEOMETRIK MASALALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Aytuvganov U. X.[1], Saidxonov J. S.[2]
[1] Termez state university, Termez, Uzbekistan
aytuvganovu@mail.ru
[2] Termez state university, Termez, Uzbekistan
jamshidsaidxonov@gmail.com

Zamonaviy ta’lim bitiruvchidan o‘rganilayotgan sohani chuqur bilish va uni mohiyatiga yetishni talab etadi. Tushunchalarning qayerda muhim, qayerda muhim emasligini ulardan kerakli joyda foydalanishni bilishlari kerak. Shunga ko‘ra, psixologik muammo sifatida talabalarning

masala yechish jarayonida ijodiy fikrlashini rivojlantirishni tahlil qilish muammosini keltirib chiqaradi.
Ravshanki, fikrlash bo‘lajak matematika o‘qituvchisi kompetensiyasini shakllantirish faoliyati sifatida qaraladi. Kompetensiyaning shakllanganligi asosida talabani bilim sifati darajasini baholash imkoniyati paydo bo‘ladi.Masalalarni turli usullar yordamida yechish talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Agar masala bitta usulda yechilsa talaba boshqa usul haqida fikrlashga o‘rin yo‘q deb o‘ylaydi. Agar masala ikki usulda yechilsa boshqa usuli ham bor yoki yo‘qligini o‘ylab ko‘radi, natijada, ijodiy fikrlash shakllana boshlaydi. Yuqoridagi fikrlash, ijodiy fikrlash tushunchalaridan xulosa qilgan holda quyidagi ta’rifni kiritamiz:
Ta’rif. ***Berilgan masala yechimini topish eshigini ochishga xizmat qiluvchi g‘oyalarga ega bo‘lgan talabalarga ijodiy fikrlaydigan talabalar deyiladi*** [2].
Ijodiy fikr juda ko‘p xususiyatlarga ega: talabalar masalani yechimini topishda zarur bo‘ladigan juda ko‘p faktlarni yodda saqlashlari kerak; matematik til va belgilarni o‘z o‘rnida qo‘llash; masalaga mos chizmani yasash; aniq qoida bo‘yicha teran fikr yuritish; ta’rif va teoremalarni bilish, shuningdek xulosa va natijalarni to‘g‘ri ifodalash. Masalaning yechimini topish talabaning tizimli faoliyati va umumlashtirishdan iborat. Talabalik davri maxsus qobiliyatlarni rivojlantiruvchi, turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, muhim bo‘lgan ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun samarali davr, buning uchun talabaga har doim ijodiy topshiriqlar berish, taqqoslashga, asosiyisini ajratib olishga, ichki va tashqi bog‘lanishlarni o‘zlashtirishga o‘rgatish zarur. Yuqoridagi fikrni talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga va unda intutsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishini aniq misollarda ko‘rib o‘tamiz.

Masala yechish jarayonida talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda quyidagilarga e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

1) talabani ijodiy fikrlashga yo‘naltiruvchi planimetriya va stereometriya masalalarini bir tizimga solish; 2) masalani turli metodlar bilan yechish; 3) usul, metod va ijodiy yondashuvlarni aniq masalalarni yechishda qo‘llash. Bular har doim dolzarb va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.


Talabaning ijodiy fikrlashini rivojlantirish jarayoni uchta yondashuvni talab etadi: masalani geometrik yechimi; masalaning algebraik yechimi; masalaning geometrik va algebraik yechimi, ya’ni har ikkala metodning integratsiyasidan foydalaniladi. Qaysi yo‘l tanlanmasin, bu yo‘lining samarali amalga oshirilishi, tabiiyki matematik bilim va uni qo‘llashga bog‘liq.

Matematika o‘qitish metodikasi fani o‘quv jarayonida o‘qituvchi yuqoridagi fikrlarga asoslanib talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish maqsadida quyidagicha masalalarni tanlashi mumkin.


1-Masala. Teng uchburchaklarda mos balandliklar, mos medianalar va mos bissektrisalar tengligi ma’lum. **Ijodiy fikrlash** ta’rifiga ko‘ra masala **strategiyasi** quyidagicha qo‘yilishi mumkin: agar ixtiyoriy uchburchakda mos balandliklar, mos medianalar va mos bissektrisalar teng bo‘lsa u holda berilgan uchburchaklarning tengligini isbotlang.

Isbot. Masala shartiga ko‘ra

$$h_a = h_a^1, \quad h_b = h_b^1, \quad h_c = h_c^1.$$



2.7 rasm



2.8 rasm

Uchburchaklar yuzini topamiz:

$$2S = h_a \cdot a, \quad 2S = h_b \cdot b, \quad 2S = h_c \cdot c \quad \text{va} \quad 2S = h_a^1 \cdot a^1,$$

$$2S = h_b^1 \cdot b^1, \quad 2S = h_c^1 \cdot c^1$$

bundan,

$$a = a^1, \quad b = b^1 \quad \text{va} \quad c = c^1$$

kelib chiqadi. Talabalar bir necha munozaradan so‘ng quyidagi yangi g‘oyani (bilimni) taklif qilaydilar: *ixtiyoriy ikkita uchburchakning teng bo‘lishi uchun mos balandliklarning teng bo‘lishi zarur va etarlidir.*

O‘qituvchi ijodiy fikrlash ta’rifiga ko‘ra masala strategiyasini quyidagicha o‘zgartirishi mumkin: bu masala sharti medianalar uchun bajariladima? Talabalar so‘zsiz ha deb javob beradilar. Chunki, uchta medianaga ko‘ra uchburchak yasash mumkinligi va uni yagona echimga ega ekanligi darsliklarda ko‘rsatilgan [1]. O‘qituvchi masalani murakkablashtirib bissektrisa bo‘lsa-chi? Muammoli vaziyat yuzaga keladi. O‘qituvchi sirkul va chizg‘ich yordamida uchta bissektrisaga ko‘ra uchburchak yasash mumkin emasligi to‘g‘risida fikr bildiradi. Talabalar bir necha usul bilan harakat qiladilar, bissektrisalarning analitik ifodasi yordamida tuzilgan tenglamalar sistemasi echimga ega bo‘lmadi. Bundan, talabalar darhol yangi g‘oyani quyidagicha ifodalaydilar: *ixtiyoriy ikkita uchburchakda mos bissektrisalarning tengligidan uchburchaklarning tengligi kelib chiqmaydi.*

Yuqoridagi mulohazalardan quyidagicha xulosaga kelinadi: *agar biror F figura chiziqli elementlariga ko‘ra yasalsa va yagona echimga ega bo‘lsa, u holda F figuraga teng bo‘lgan boshqa F^1 figura topiladi.*

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Жумаев Э.Э. Развитие творческого мышления учащихся в процессе решения геометрических задач. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук по специальности 13.00.02-теория и методика преподавания математики Киев-1997.-162 s.
2. Вигодский Л.С. Психология равития человека. Издательство Эксмо-Москва 2005.-1136 с
3. Aytuvganov U.X. “Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda geometrik masalalarning o‘rni va roli”. Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. Samarqand. 2020.2-son (120).-B.140-144.

УДК 513.317.38

O‘QUVCHILARDA MATEMATIK SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH STRATEGIYALARI

Berdiyeva O. B.
Surxondayo viloyat Pedagogik mahorat markazi,Termiz, O‘zbekiston
Oygul1974@umail.uz

Bugunga kelib matematika o‘qituvchisi ilg‘or xorijiy tajribalarga tayangan holda halqaro ta’lim tizimida fanni o‘qitish va uni rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilayotganini bilishi kerak. Hozir o‘ziga xos vaqt: matematikani o‘qitishning ko‘plab an’anaviy g‘oyalari va amaliyotlari rad etildi va taklif qilinayotgan yangisi sinovdan o‘tkazilmoqda. Shunday ekan, zamonaviy o‘qituvchi hozirda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida matematika fanini o‘zlashtirish uchun qanday bilim berilayotganligini bilishi kerak.

Gap shundaki, innovatsion va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan asrda Xalqaro matematik ta’limning an’anaviy tizimi yaratildi, uni quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflash mumkin:

1) umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘rganilgan mustaqil fanlardan – matematika, algebra, geometriya fanlardan iborat matematika kursi o‘qitiladi. Boshlang‘ich sinflarda matematika fani o‘rtasida uzluksizlik bo‘lmasligi uchun boshlang‘ich maktabda matematika fan sifatida belgilangan. Bu esa umumta’lim maktablarining rasmiy mantiqiy matematikasi;

2) matematika fanini o‘rganish maqsadi soddalashtirildi;

3) matematik g‘oyalarni emas, balki matematik savodxonlikni shakllantirish maqsadida maktabda o‘rganilgan mavzular va tushunchalarni hayotiy misollar orqali o‘zlashtirilishi o‘quvchilarning kasbiy faoliyatni shakllanishida fanni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Respublikamizda maktab matematika fanini matematika – fanga yaqinlashtiradigan yangi dasturlar, darsliklar va metodlarni yaratish harakati boshlandi.

Ta’lim sifatini yaxshilash va innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ilg‘or jahon tajribasiga tayanib, yangi davlat ta’lim standartlari va umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturlarini, shu jumladan STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish maqsadida maktab o‘quv dasturi va darsliklarida loyiha ishlari kiritildi [1].

Shunday ekan, bugun ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun fan mutaxassislari qay darajada tayyor. Gap shundaki, ta’lim mazmuni qanchalik yangilanmasin yangi dasturlar, standartlar yaratilmasin, ularning samaradorligi va qay darajada o‘quv jarayoniga tadbiq etilishi asosan o‘qituvchilarning bilimi, malakasi, kasbiy mahorati, ijodkorligi, fidoiyligiga bog‘liq bo‘lib qolaveradi. Ta’lim sifati hech qachon o‘qituvchi sifatidan oshib ketmaydi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohatlari ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchi yoshlarni kelajakda jamiyatga kerakli kadrlar qilib tayyorlash, o‘quvchilarni ongli kasb tanlashga yo‘naltirish – bu maktabning bosh vazifasidir.

O‘zbekiston 2022-yilda PISA tadqiqotlariga ishtirok etishi ham aynan aniq fanlar bilan bog‘liq. PISA muayyan o‘quv dasturlarining ustunligini o‘rganishga, o‘quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash, muloqot qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi [2].

Matematik savodxonlik – shaxsning matematikani turli xil sharoitlarda shakllantirish, qo‘llash va sharhlash qobiliyati. U matematik asoslashni, matematik tushunchalarni, usullarni, faktlarni va vositalarni tavsiflash, tushuntirish va taxmin qilish uchun ishlatishni o‘z ichiga oladi. Bu odamlar dunyodagi matematikaning rolini tushunishlariga, asosli qarorlar chiqarishiga va fuqarolarning konstruktiv, faol va fikrlashi kerak bo‘lgan qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi [3].

Ayni paytda harakatdagi darsliklarimizdagi misol va masalalar bu talabni bajarishga mo‘ljallanmagan. Bizning darsliklarda PISA topshiriqlariga o‘xshash masalalar juda kam yoki umuman yo‘q. Masalalarda ko‘rilayotgan vaziyatni tavsiflovchi juda katta hajmdagi axborot berilib, ularda juda ko‘p yangi matnli ma’lumotlarning borligi – masalani tushunish va uni yechishni yana og‘irlashtiradi.

O‘quvchilarni an’anaviy usullarda o‘qitishda bunday vazifalarni amalga oshirish ancha mushkul ish. Buni ilmiy-uslubiy jurnallarda e’lon qilinayotgan maqolalar va o‘qitishning yangi metodlarini izlab topish borasidagi izlanishlar ham ko‘rsatib turibdi. Chunki an’anaviy o‘qitishning mohiyati o‘quvchilarga faqat ma’lumot berishdan iborat. Bunda asosan tushuntirish-namoyish metodi ustunlik qiladi. Bu hol esa o‘quvchilarga ilgari olgan bilimlaridan kasbiy ta’lim fanlarini o‘rganish va ixtisoslikka oid masalalarni yechishda foydalanish, shuningdek, amaliy faoliyatida faollik ko‘rsatishlariga katta imkon bermaydi.

Ushbu maqola orqali fan sirlarini o‘rganishlari uchun matematika fani mutaxasislariga quyidagi kompitentlik shakllangan bovlishi lozim deb o‘ylaymiz:

- o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tarbiyalash, mustaqil ishlash malakasini hosil qilishga yordam beruvchi vosita va metodlardan to‘g‘ri foydalanishni bilishi;
- fanni o‘zlashtirish uchun tayyor bilimlarni bermasdan, balki fikrlashga undovchi muammoli vaziyatlarni yarata olishi;
- matematikadan turli mavzularni o‘rganishda doimo aniq misollar orqali ko‘rsatmalilikdan foydalanishni bilishi;
- matematikaning boshqa fanlardan farqli go‘zal jihatlarini mavzuga kirishdan oldin topishga va ochishga o‘quvchining tafakkuri orqali tasavvurini shakllanishiga erishishi;
- o‘quvchilar o‘qituvchining o‘z fani, shu darsining mavzusi bilan astoydil shugullanayotganini sezdirishi va o‘ziga ergashtira olishni bilishi;
- sinfda e’tiborsizlar va zerikuvchilar bo‘lmasligi, matematikani "quruq va qiziqarlimas"(ko‘plarga shunday tuyuladi) fandan qiziqarli va jozibali fanga aylantirish uchun har bir darsni turli xil metodlardan foydalanib tashkil eta olishni bilishi;
- mavzuni amaliyot, xayot bilan bog‘lash, ko‘plab misollarni tevarak atrofdan izlab topish va uni o‘quvchining o‘zi yechishiga erishishi uchun yo‘naltiruvchi savollarni qo‘ya bilishi lozim.

Matematika tafakkur va tasavvurni rivojlantirib, aqlni tartibga soladi. Uning amaliy tadbiq qilinish sohasi juda katta. Siz qaysi fanni o‘rganmang, qaysi oliy o‘quv yurtiga kirmang, qaysi sohada ishlamang, agar siz o‘sha yerda iz qoldirishni istasangiz, buning uchun hamma yerda shu fanni bilishingiz zarur.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "2018–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida"gi 2018-yil 5-sentabrdagi PQ–3931-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tashkilotlarni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida"gi 997-sonli qarori.

4. PISA–2021 tadqiqodlarining ustivor yo‘nalishi: matematik savodxonlikni baholash, –N. Karimov ma’ruzasi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda baholashning o'rni.

Djavliyeva G. R.[1], Qudratova Sh.I.[2]
[1,2] Termiz davlat universiteti, Termiz, O'zbekiston

Muhokamani tushuntirishdan oldin mamlakatimizdagi ilmiy rivojlanish haqida biroz ma'lumot berib o'tsam. O'zbekiston mustaqillika erishganidan so'ng, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday deganlar:

"Biz jamiyatimizda ilm-fan ta'lim va innovatsiyani rivojlantirmas ekanmiz, hech qachon yangi taraqqiyot bosqichiga chiqa olmaymiz "

So'ngi yillardagi yutuqlar-"Yosh olim" va "Ilm-fan-2025" dasturlar orqali yuzlab ilmiy loyihalar moliyalashtirilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonning ilmiy maqolalari Scopus va Web of Science bazalarida ko'paymoqda.

Prezident stipendiyalari, Beruniy, Ulug'bek, Zulfiya va boshqa mukofotlar ta'sis etilgan shularga ilmli va bilimli harakatchan O'zbekiston talaba yoshlari ega bo'lishlari mumkin.

Baholash-ta'lim sifatida oshirishda muhim vosita . U nafaqat o'quvchi bilimini , balki ta'lim jarayoning samaradorligini ham ko'rsatadi. Baholashning asosiy vazifalari:
*bilim ko'nikma va malakalarni aniqlash;
*ta'lim jarayonini boshqarish va takomillashtirish;
*ta'lim sifatini nazorat qilish;
*sifatli kadrlar tayyorlash.

Shu ta'lim sifati uchun uni oshirish uchun Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev so'zlariga to'xtalib o'tamiz- "Muammolarimizning yechimi , savolarimizning javobi faqat va faqat ta'limda. Hamma eshiklarini ochadigan kalit ham-ta'lim va tarbiyadadir", "Maktabni maktab qiladigan kuch esa-o'qituvchilardir", "Yangi O'zbekistonda eng muhim soha-ta'lim , eng hurmatli insonlar o'qituvchi va murabbiylardir" shular misoliga.

Bilim ko'nikma va malakalarni aniqlashda to'xtalib o'tamiz-baholash orqali o'qituvchining egallagan bilim darajasini aniqlash . Ta'lim jarayonini boshqarish to'g'ri baholash o'qituvchiga darsni rejalashtirishda yordam beradi. O'quvchilarning o'zlashtirish sur'ati va qiyinchiliklariga qarab metodlarini o'zgartirish imkoni beradi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda baholashning o'rni juda katta. Shunga doir misollar keltirib o'tamiz:
* O'zbekiston o'quvchilari PISA, TIMSS, PRILS xalqaro dasturlarda ishtirok etmoqda;
* Universitetlarda 5 ballik baholash tizimi joriy etilgan ;
* Ta'lim inspeksiyasi sifat monitoringini olib bormoqda ;
* 2022-2026-yillarda pedagoglarni xalqaro standartlar asosida baholash belgilangan .

Ta'lim to'g'risidagi ko'plab qonunlar va hujjatlarni keltiramiz:
• "talim to'g'risida"gi qonun (2020-yil);
• " pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun;
• PQ-4708 qarori – matematika ta'limni rivojlantirish milliy dasturi Statistik ma'lumotlar :
• 6,2 mln nafar o'quvchi umumta'lim maktablarda ;
• 10 mingdan ortiq umumta'lim maktablari ;
• 500 mingdan ortiq o'qituvchilar ;
• OTMlarda 1,5 mln ga yaqin talaba;
• So'nggi 10 yilda kunduzgi ta'limdagi talabalar soni 2,7 barobarga oshdi;
• Islohotlar va maqsadli srategiyalar :
• O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

• Maktab ta'lim sohasidagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda, samaradorlikni oshirish vazifalari belgilab o'tilmoqda .
• Prezident Shavkat Mirziyoyev maktab ta'limi tizimidagi islohotlar bo'yicha yig'ilishlar o'tkazmoqda.

Baholash natijalari asosida ta'lim muassalari o'z fao,liyatini tahlil qiladi. Bu esa zamon talabiga mos bilimli, raqobatbardosh yoshlarni yetishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqsad:

Mavzuning maqsadi — ta'lim jarayonida baholashning ahamiyatini, uning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish va yoritishdan iborat. Ta'lim sifatini baholashning mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
Zamonaviy baholash tizimlarining ta'lim samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish;
Baholash orqali o'quvchi va o'qituvchi faoliyatini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish;
Prezident farmonlari, qarorlar va qonunlar asosida ta'lim sifatini baholashning dolzarbligini yoritish;
O'zbekiston ta'lim tizimida joriy etilayotgan yangicha baholash yondashuvlarini tahlil qilish.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, baholash – ta'limning ajralmas qismi bo'lib , u nafaqat o'quvchi bilimini, balki ta'lim jarayonining samaradorligini ham aniqlaydi. Adolatli, tizimli va zamonavi baholash usullaridan foydalish ta'lim sifatini oshirishda eng muhim omillardan biridir. Bugungi kun O'zbekiston Respublikasida baholash tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashtirish, adolatli, shaffof mezonlar asosida o'tkazish bo'yicha keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek:- "Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida eng muhim vazifamiz ta'lim sifatini oshirishdir." Shunday ekan baholash tizimi faqatgina natijani aniqlovchi vosita emas, balki ta'limning sifatini kafolatlovchi, inson kapitalini rivojlantiruvchi, taraqqiyotga yo'naltirilgan omildir.

Литература

1. *O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (yangi tahriri, 2020-yil 23-sentabr).*
2. *"Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun (2019-yil 30-dekabr).*
3. *O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va farmonlari*
4. *2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirish bo'yicha yangi O'zbekiston strategiyasi.*
5. *Xalq ta'limi vazirligi va Oliy ta'lim , fan va innovatsiyalar vazirligi axborotlar (rivojlanish dasturlari, 2021-2024-yillar)*
6. *Ilmiy qo'llanmalar (Rahmonov. N. "Ta'lim sifatini baholashning zamonaviy yondashuvlari", "Ta'lim innovatsiyalar jurnali", 2022)*

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va elektron ta'lim vositalarining ahamiyati

Djurayeva D.Sh.[1], Qo'ldosheva D.[2]
[1,2] Termiz davlat universiteti, Termiz, O'zbekiston

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va elektron ta'lim vositalarining ahamiyati. Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar va elektron ta'lim vositalarining ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va elektron ta'lim vositalari ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, o'qitish metodlarini diversifikatsiya qilish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun juda muhim vositalar sifatida xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar: ta‘rif va xususiyatlar. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – bu ta‘lim jarayonida pedagogik maqsadlarni amalga oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik metodlar va vositalardir. Bu texnologiyalar an‘anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, shuningdek, o‘qituvchilar uchun ta‘lim jarayonini boshqarish va baholashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlari:

1. Interaktivlik: Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarni faollashtiradi va ularni o‘qish jarayoniga to‘liq jalb qiladi. O‘quvchilarning o‘qituvchilar bilan aloqasi va bir-biri bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatlari oshadi.

2. Moslashuvchanlik: Ta‘lim jarayonini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatini yaratadi. O‘quvchilar o‘z bilim darajasiga mos ravishda o‘rganish imkoniga ega bo‘ladilar.

3. Kreativlikni rivojlantirish: Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘quvchilar yangi g‘oyalar yaratishda va muammolarni ijodiy hal qilishda o‘zlarining kreativliklarini rivojlantiradilar.

4. Resurslarga keng kirish: Internet va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyati o‘quvchilarga global bilim bazasidan foydalanish imkonini beradi.

N.Yu. Алексеев (2021) tomonidan yozilgan “Интерактивные образовательные технологии и их роль в профессиональной подготовке учителей” tadqiqotida interfaol va raqamli texnologiyalar asosida o‘qituvchilarni tayyorlash masalasi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda interfaol texnologiyalar va raqamli resurslarning o‘qituvchilarni professional tayyorlashdagi roli tahlil qilingan.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular o‘qitish metodlarini diversifikatsiya qilish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni faollashtirish va mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini yaratish kabi afzalliklarga ega. Bu texnologiyalar nafaqat o‘quvchilar uchun, balki o‘qituvchilar uchun ham ta‘lim jarayonini takomillashtirish, metodologik bilimlarni yangilash va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, ta‘lim tizimi innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitilganda, o‘quvchilarning umumiy ta‘lim va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Elektron ta‘lim vositalari o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish, ma’lumotlarni taqdim etish, baholash va o‘quvchilarning bilim darajasini monitoring qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular ta‘limni yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va samarali qilish imkoniyatini yaratadi. Quyida elektron ta‘lim vositalarining asosiy turlari va ularning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati batafsil keltirilgan:

1. LMS (Learning Management System) – O‘qitish boshqaruvi tizimi. LMS – bu ta‘lim jarayonini boshqarish va monitoring qilish uchun mo‘ljallangan elektron tizimlar bo‘lib, o‘qituvchilar va o‘quvchilarga turli ta‘lim resurslarini taqdim etish, topshiriqlarni yuklash, testlar o‘tkazish va baholash imkonini beradi. LMS tizimlari yordamida ta‘lim jarayonining barcha bosqichlarini masofaviy ravishda boshqarish mumkin. LMS tizimlarining asosiy imkoniyatlari:

Materiallarni joylashtirish: O‘qituvchilar o‘z o‘quv materiallarini platformaga joylashtirishlari mumkin.

Baholash: Testlar va viktorinalar orqali o‘quvchilarni baholash.

Kommunikatsiya: O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida muloqot qilish imkoniyatlari (forumlar, xabarlar, chatlar).

Monitoring: O‘quvchilarning faoliyatini kuzatish va baholash. O‘qitish boshqaruvi tizimiga quydagilarni misollarni keltirish mumkin: Moodle, Google Classroom, Canvas, Blackboard.

2. MOOC (Massive Open Online Courses) – Kengaytirilgan ochiq onlayn kurslar. MOOC

platformalari ta'limni keng auditoriya uchun onlayn shaklda taqdim etadi. Bu tizimlar butun dunyo bo‘ylab foydalanuvchilarga bepul yoki pullik kurslarni o‘rganish imkoniyatini beradi. MOOC kurslari o‘quvchilarga o‘zlashtirish jarayonini boshqarish imkoniyatini yaratadi, turli mavzularda (ilmi, texnologiya, san'at, ijtimoiy fanlar va boshqalar) bepul yoki pullik kurslarni taqdim etadi. MOOC tizimlarining asosiy xususiyatlari:

Keng auditoriya: Kurslarga global miqyosda kirish imkoniyati.

Fakultativ kurslar: Talabalar o‘zlariga qiziqarli bo‘lgan kurslarni tanlashlari mumkin.

Kurs materiallari: Video darslar, testlar, o‘quv qo‘llanmalari va forumlar.

Sertifikatlar: Kursni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga rasmiy sertifikatlar berish.

Kengaytirilgan ochiq onlayn kurslarga quydagilar misol bo‘la oladi: Coursera, edX, Udemy, Khan Academy.

3. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar. Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar ta'limda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarga ilmiy tajribalarni xavfsiz va interaktiv tarzda o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Simulyatsiya yordamida o‘quvchilar tajriba qilish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va yangi bilimlarni sinash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Simulyatsiya va virtual laboratoriyalarning afzalliklari:

Realistik muhit: O‘quvchilar ilmiy tajribalarni virtual tarzda o‘rganishadi, xavfsiz va arzon. Praktik ko‘nikmalarni rivojlantirish: O‘quvchilar bilimni amalda qo‘llashadi. Masofaviy o‘rganish: Barcha laboratoriyalar masofadan o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu kabi elektron ta'lim vositalari innovatsion ta'lim jarayonini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o‘quvchilarni faol o‘rganishga undaydi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga yordam beradi va fanlarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Shu sababli, ta'lim jarayonida PhET, Labster va ChemCollective kabi platformalarni keng qo‘llash maqsadga muvofiq.

Литература

1. **Abduraxmonov, Q.** *Innovasion pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayonida qo‘llash usullari. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.2020.*
2. **Xodjayev, A.** *MElektron ta'lim tizimini joriy etishda pedagogik innovatsiyalarning ahamiyati. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axboroti, №2, 45–52-betlar.2021*
3. **Mirzayeva, D.** *Interaktiv o‘qitish usullari va elektron ta'lim muhitini rivojlantirishda ularning roli. "Pedagogika va psixologiya" jurnali, №4, 61–68-betlar. 2023*
4. **To‘xtayeva, N.** *Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar va masofaviy o‘qitish imkoniyatlari. Samarqand: SamDU nashriyoti.2022*
5. **Qodirov, B., Mirzayeva, D.** *Ta'limda elektron dasturiy ta'minotni takomillashtirish va uning pedagogik samaradorligi. "Ilmiy izlanishlar" jurnali, 7(1), 25–33.2024*
6. **Yunusova, S.** *Innovasion ta'lim texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish masalalari. "Ta'limda innovatsiyalar" ilmiy jurnali, №1, 15–23. 2021*
7. **UNESCO.** *Education and Digital Transformation: Global Report. Paris: UNESCO Publishing.2023.*
8. **Anderson, T., Dron, J.** *Teaching Crowds: Learning and Social Media. Edmonton: Athabasca University Press 2020.*
9. **. Bates, A. W.** *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver: Tony Bates Associates Ltd.2019.*
10. **Siemens, G.** *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3–10.2018.*

UDK 512.1

BA'ZI MURAKKAB SONLARNING BO'LINISH BELGILARI VA MAVJUD BO'LINISH BELGILARIGA YANGICHA YONDASHUV

Erdonov B.X.[1)], Xudoynazarova D.N.[2)], Ro'ziyeva N.T.[3)]
[1)]Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Axborot texnologiyalari va aniq fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi;
[2),3)]Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Matematika yo'nalishi talabalari.
bekmurod.erdonov@mail.ru

Maktab o'quvchilariga fanlardan chuqur bilim berish bilan birgalikda berilayotgan bilimlarni hayotda qanday qo'llash mumkinligini o'rgatish hozirgi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Matematika fanida ta'rif, teorema va tushunchalarni o'quvchiga hayotiy va sodda qilib tushuntirish mushkul vazifalardan biridir. Surxondaryo viloyati maktablari matematika o'qituvchilaridan olingan so'rovnomalarda berilgan takliflardan biri bu – matematika kursida berilgan bo'linish belgilari mavzusidagi murakkab sonlarga yagona qoida asosida bo'linish belgisi hosil qilish masalasi bo'ldi. Biz ushbu masala yuzasidan ba'zi murakkab sonlarga yagona bo'linish qoidasini yaratishga e'tibor qaratdik.

Maktab 6-sinf matematika darsliklarida sonni tub sonlar ko'paytmasi shaklida keltirish mavzusi berilgan. Ushbu mavzu bo'yicha kattaroq sonlarni tub sonlar ko'paytmasi shaklida ifodalash masalalalarini hal qilishda sonlarning bo'linish belgilari muhim hisoblanadi. Bizga ma'lumki darsliklarda 2, 3, 4, 5, 8, 9, 10, 11, 25 sonlariga bo'linish belgilari berilgan. Ba'zi adabiyotlarda 7, 13, 17, 19, 23 sonlariga bo'linish belgilari ham berilgan. [1] maqolada 10 soni bilan o'zaro tub bo'lgan barcha sonlar uchun bo'linish belgilari umumiy holda berilgan.

Odatda murakkab sonlarga bo'linish belgilari uni o'zaro tub ko'paytuvchilarga ajratib, hosil bo'lgan ko'paytuvchilarning bo'linish belgilari orqali hal qilinadi. Bunda ko'paytuvchilarning har biri uchun bo'linish belgilari alohida tekshiriladi. Endi haqli savol tug'iladi, umumiy holda bo'linish belgilari berilmagan murakkab sonlar ya'ni 6, 12, 14, 15, 18, ... sonlar uchun yagona bo'linish belgilari mavjudmi? A. Dusumbetov, R. Turgunbayev [2] maqolasida 10 bilan o'zaro tub bo'lmagan sonlarga yagona bo'linish qoidasi berilgan, ammo bu qoidani qo'llash bir necha bosqichni va katta sonlar bilan hisoblashlarni yuzaga keltiradi. Biz ushbu ishda [1] maqolada berilgan bo'linish belgilarini to'ldirgan va [2] maqolada berilgan hisoblashlardan soddaroq bo'lgan, 10 bilan o'zaro tub bo'lmagan ba'zi sonlar uchun bo'linish belgilariga to'xtalamiz.

1-teorema. $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$. *soni 6 ga bo'linishi uchun uning birlar xonasidagi raqami va qolgan raqamlari yig'indisining to'rtlanganining yig'indisi 6 ga bo'lishi yetarli.*

Isboti: Sonlar nazariyasidan bizga ma'lumki $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$ soni 6 ga bo'linishi uchun $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n} \equiv 0(mod6)$ (1) bo'lishi yetarli. (1) taqqoslamaning chap tomonidagi sonni xona qo'shiluvchilari yig'indisi shaklida yozsak quyidagi ko'rinishga keladi [3] (36-38 betlarga qarang)

$$a_0 \cdot 10^n + a_1 \cdot 10^{n-1} + ... + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(mod6). \qquad (1')$$

Shu o'rinda quyidagi lemmani keltiramiz:

Lemma. $10^n \equiv 4(\text{mod}6) \quad (n \in N)$ *bajariladi.*

Isboti. Matematik induksiya metodiga asosan isbotlaymiz. $n = 1$ bajarilishi tushunarli. $n = k$ da o'rinli deb $n = k + 1$ da o'rinli ekanligini ko'rsatamiz. $n = k$ da $10^k \equiv 4(\text{mod}6)$ o'rinli deb hisoblaymiz. Oxirgi taqqoslamani ikkila qilsmini 10 ga ko'paytiramiz $10^{k+1} \equiv 40(\text{mod}6)$ yoki $10^{k+1} \equiv 4(\text{mod}6)$ natijani olamiz. Bu natija lemmani isbotlaydi.

(1') taqqoslamani $10^n \equiv 4(\text{mod}6) \quad (n \in N)$ ekanligidan foydalanib

$$a_0 \cdot 4 + a_1 \cdot 4 + ... + a_{n-1} \cdot 4 + a_n \equiv 0(mod6)$$

yoki

$$4 \cdot (a_0 + a_1 + ...a_{n-1}) + a_n \equiv 0(mod6)$$

ko‘rinishida yozishimiz mumkin. Bu 1-teoremani isbotlaydi.

Misol. 738 soni 6 ga bo‘linishini yuqoridagi 1-teorema yordamida tekshiramiz. $4 \cdot (7+3)+8 = 48$, 48 soni 6 ga qoldiqsiz bo‘linadi, demak 738 soni ham 6 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

2-teorema. *$\overline{a_0a_1...a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ soni 12 ga bo‘linishi uchun, uning oxirgi ikki raqamidan tuzilgan son va qolgan raqamlari yig‘indisining to‘rtlanganining yig‘indisi 12 ga bo‘linishi yetarli.*

Isboti. $\overline{a_0a_1...a_{n-2}a_{n-1}a_n}$ soni 12 ga bo‘linishi uchun

$$\overline{a_0a_1...a_{n-2}a_{n-1}a_n} \equiv 0(\text{mod}12) \tag{2}$$

bo‘lishi yetarli [4]. (2) taqqoslamaning chap tomonidagi sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi shaklida yozsak

$$a_0 \cdot 10^n + a_1 \cdot 10^{n-1} + ... + a_{n-1} \cdot 100 + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(mod12)$$

ko‘rinishga keladi. Oxirgi taqqoslamani $10^n \equiv 4(\text{mod}12) \quad (n \geq 2, \ n \in N)$ (yuqoridagi lemma o‘xshash matematik induksiya metodi asosida isbotlash mumkin) ekanligidan foydalanib

$$a_0 \cdot 4 + a_1 \cdot 4 + ... + a_{n-2} \cdot 4 + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(mod12)$$

yoki

$$4 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-2}) + \overline{a_{n-1}a_n} \equiv 0(mod12)$$

ko‘rinishida yozishimiz mumkin. Bu 2-teoremani isbotlaydi.

Misol. 5832 soni 12 ga bo‘linishini yuqoridagi 2-teorema yordamida tekshiramiz. $4 \cdot (5+8) + 32 = 84$, 84 soni 12 ga qoldiqsiz bo‘linadi, demak 5832 soni ham 12 ga qoldiqsiz bo‘linadi.

3-teorema. *$\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$ soni 15 ga bo‘linishi uchun, uning raqamlari yordamida tuzilgan $10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n$ sonli ifoda 15 ga bo‘linishi yetarli.*

Isboti. $\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n}$ soni 15 ga bo‘linishi uchun

$$\overline{a_0a_1...a_{n-1}a_n} \equiv 0(\text{mod}15) \tag{3}$$

bo‘lishi yetarli. (3) taqqoslamaning chap tomonidagi sonni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi shaklida yozsak

$$a_0 \cdot 10^n + a_1 \cdot 10^{n-1} + ... + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(mod15)$$

ko‘rinishga keladi. Oxirgi taqqoslamani $10^n \equiv 10(\ \text{mod}\ 15) \quad (n \in N)$ (yuqoridagi lemma o‘xshash matematik induksiya metodi asosida isbotlash mumkin) ekanligidan foydalanib

$$a_0 \cdot 10 + a_1 \cdot 10 + ... + a_{n-1} \cdot 10 + a_n \equiv 0(mod15)$$

yoki

$$10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n \equiv 0(mod15)$$

ko‘rinishida yozishimiz mumkin. Bu 3-teoremani isbotlaydi.

Izoh: 3-teoremadagi $10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n$ ifoda o‘rniga $5 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) - a_n$ sonli ifodani tekshirish ham mumkin. Ammo $10 \cdot (a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}) + a_n$ sonli ifodani hisoblash qulay bo‘lganligi uchun ushbu ifodani oldik.

Misol. 51 861 945 soni 15 ga bo‘linishini yuqoridagi 3-teorema yordamida tekshiramiz. $10 \cdot (5+1+8+6+1+9+4)+5 = 345$, 345 uchun ham yuqoridagi teoremani qo‘llaymiz, $10 \cdot (3+4)+5 = 75$,

75 soni 15 ga qoldiqsiz bo‘linadi, demak 345 soni ham 15 ga qoldiqsiz bo‘linadi. Bu esa 51861945 soni 15 ga qoldiqsiz bo‘linishini ko‘rsatadi. (51 861 945:15=3 457 463)

Xulosa o‘rnida shu aytishimiz mumkinki, har qanday murakkab son uchun yagona bo‘linish qoidasi keltirish mumkin, ammo bu qoidani qo‘llash orqali o‘quvchi hisoblashlarda qulaylik olmasligi mumkin. Biz ushbu ishda hisoblashga va tekshirish qulay bo‘lgan ba’zi murakkab sonlarga bo‘linish belgilarini keltirdik.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. **Ibragimov Q.T., Erdonov B.X.** *Sonlarning bo‘linish alomatlari va mavjud bo‘linish belgilariga yangicha yondashuv.* Fizika, matematika va informatika jurnali. 2020. №6, 14-18 b.
2. **Dusumbetov A., Turgunbayev R.** *Bo‘linish belgilari.* Fizika, matematika va informatika. 2003, №3, 25-33 b.
3. **Allakov I.** *Sonlar nazariyasidan misol va masalalar (yechimlari bilan).* Termiz. «Surxon-Nashr» nashriyoti 2020.
4. **Erdonov B.X.** *Ba’zi murakkab sonlarning bo‘linish belgilari va mavjud bo‘linish belgilariga yangicha yondashuv.* NamDU ilmiy axborotnomasi. 2023. №12, 509-513 b.

Ta‘limda integratsiya va uning mohiyati

Jumaniyozov Q. S.[1], Safoyeva K. Q.[2]
[1]Oriental universiteti, Matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi, Toshkent, O‘zbekiston; e-mail: qudrat.j533@gmail.com
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasi, Chirchiq, O‘zbekiston; e-mail: Safoyevakamola@gmail.com

Matematikada integratsiya tiklash sifatida – ixtiyoriy buzilishlar, butunlik yoki birlikning parchalanishini ”yo‘q qilish” bo‘yicha harakat orqali emas, balki ongli ravishda o‘tkazilgan differensatsiyani tushurish sifatida xarakterlanadi. Bundan tashqari matematikada integratsiya qismlarni yig‘indisi sifatida ifodalanadi. Shuning uchun butunlik teginmaganlik kabi emas, tarkibiylik sifatida qabul qilinadi. Lotin so‘zining ma‘nosini shakl almashtirish jarayonining teskari tomoni sifatida – integratsiya biror butunlikni tiklash bo‘yicha faoliyat bo‘lmay, faqatgina fikrlash protsedurasi sifatida ko‘rsatiladi.

Matematik integratsiya – butunga tiklashning umumiy ob’ektiv jarayonini xususiy holi sifatida qayta anglash XIX asrda boshlanadi. Shunday ekan, sotsiologiyada Kontdan keyin har xil ijtimoiy guruhlarni garmonik bir butunga birlashishini integratsiya deb nomlasha boshlashdi.

Integratsiya tushunchasining keyingi rivojlanishi sistemali tasavvurlarning tez suratda rivojlanishi bilan uzluksiz bog‘liq. Yuqoridagilardan kelib chiqib integratsiya tushunchasining quyidagi ma’nolarni keltiramiz:

a) integratsiya – tizim tashkil etuvchi elementlarning birlashishini ta’minlovchi aloqa sifatida;

b) integratsiya – elementlarning boshqa tizimga sintezi sifatida;

c) integratsiya – rivojlanayotgan butun organik tizim doirasida differensiallangan qismlar birlashmasi sifatida.

Oxirgi holatda, integratsiya nafaqat qismlarning funksional birlashishi va ularning koordinatsion (uyg‘unlashtirilgan) sintezini, balki har bir qismning har tomonlama rivojlanishini ham anglatadi.

Umuman olganda integratsiya – bu olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorligini anglatadi. "Integratsiya"tushunchasi integratsiyalanadigan

ob'ektlarning mohiyatiga koʻra turlicha ta'riflanadi. Biz integratsiya tushunchasiga berilgan turli xil izohlarni oʻrganib ularni quyidagicha umumlashtiramiz.

Integratsiya (lot. *integration – tiklash, toʻldirish* va *integer – butun, yaxlit*) –" tizimning, bir butun organizmning bir-biridan farq qiluvchi alohida bo'laklarining o'zaro bog'langanligini anglatuvchi, hamda xuddi shu holatni keltirib chiqaruvchi jarayon demakdir.

Integratsiya bilan bir xil deb qaraladigan tushunchalar nihoyatda koʻp, ulardan koʻproq qoʻllaniladiganlari: sinkretizm, sintez, qoʻshilish, komplekslilik va hokazo. Koʻrsatilgan tushunchalardan har biri integratsiya tabiatini ochib berishga yordam beradi, biroq uning mazmunini toʻla-toʻkis berishga yordam bermaydi.

"Integratsiya"termini (lotincha *integratio – toʻdirish, tiklash*, *integer – butun, toʻliq*) вЂњbiror qismlarni, elementlarni bir butunga birlashtirishniвЂќ anglatadi va fanlarni differensiatsiyalash bilan bir qatorda sodir boʻladigan, fanlarning aloqasi va yaqinlashish jarayonining xususiyatlarini tasvirlash uchun ham qoʻllaniladi.

Pedagogikada "integratsiya"toʻla huquqli ilmiy tushuncha sifatida jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, axborotli, madaniy va boshqa sohalardagi rivojlanayotgan oʻzaro ta'sirdagi jarayonlar sharoitida XX asrning 80-yillari birinchi yarmida mulohaza qilina boshlandi. Integratsiya muammolarini pedagoglar, hali faylasuflar, siyosatchilar u bilan jiddiy qiziqmasdan oldin mulohaza qila boshladi. XX asr boshlarida pedagogik ongda ikkita qarama-qarshi didaktik yoʻnalish vujudga keldi: predmetlilik va komplekslilik. Kompleks ta'lim oʻzini eski, predmetli ta'lim sistemasini buzish orqali amalga oshirishga uringan.Ammo integratsiyaning ilk nihollari butunlay yoʻq boʻlib ketgani yoʻq: u predmetlilik ichiga kiradi va yerga tushgan don kabi, uning ichida oʻzining rivojlanishining yangi shaklini boshlaydi. 50-yillarda integratsiya gʻoyasi pedagogik ongda fanlararo aloqalar shaklida paydo boʻladi.

Haqiqatan ham texnikaviy gʻoya rivojlanishining butun tarixi davomida masalalarni yechishning geometrik metodi eng muhim ajralmas qismi boʻlib kelgan. Geometrik til nafaqat fan va texnikada, balki hayotimizda ham qoʻllaniladi. Amaliyotda, faqatgina asl nusxaning strukturasini aks ettiruvchi geometrik modellar eng murakkab territorial komplekslarni proeksiyalash bilan bogʻliq ravishda keng qoʻllaniladi. Geometrik oʻxshashlik asosida qurilgan ushbu modellar ob'ektlarni optimal joylashtirish bilan bogʻliq boʻlgan va hokazo masalalarni yechish imkonini beradi.

Shaxs rivojlanishida ham geometriyaning ahamiyati nihoyatda katta. Koʻrgazmali tasavvurlardan kelib chiquvchi geometrik usulning oʻziga xosligi oʻquvchilarda fazoviy tasavvur va mantiqiy fikrlash kabi ahamiyatli sifatlarni shakllantirish uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Rivojlangan fazoviy tasavvur bu insonning umumiy madaniyatining muhim elementidir.

Geometriyaning roli mexanika va fizikaning rivojlanishida ham muhimdir. Bu yerda geometrik tasavvurlar fundamental rolni bajaradi, sababi harakat va jarayonlar fazoda roʻy beradi. Bunga kinematika va geometrik optika, kristallar tuzilishi, murakkab molekulalarning fazoviy modellari, tirik organizmlarning simmetriyasi va hokazolar misol boʻla oladi.Fazoviy tasavvurlar, matematik intuitsiya matematikaning oʻzida ham muhim rol oʻynaydi.

Zamonaviy fan rivojlanishining ob'ektiv tendensiyalari va shakllanayotgan axborotli jamiyatning talablari akademik litseylarda matematikani integratsiyalab oʻqitishni qat'iy talab etadi. Uning istiqbolli yoʻnalishlardan biri, algebradan geometriyaga qarab yoʻnalgan asosiy matematik fanlar integratsiyasi hisoblanadi. Matematik bilimlarni geometriyalashtirish zamonaviy matematika darsliklarida sezilarli. Shuni ta'kidlash kerakki, bilishning algebraik va geometrik usullar integratsiyasining zarurligi nafaqat fan rivojlanishining mantiqiga, balki zamonaviy mutaxassisning kasbiy sifatlarini shakllantirish talablariga ham bogʻliq.

Matematikani oʻqitish matematik faoliyat uchun xarakterli va jamiyatda ishlashi uchun insonga zarur fikrlash sifatlarini shakllantirib, oʻquvchilarning aqliy rivojlanishiga katta

hissa qo‘shishi kerak. Matematika haqida tasavvurni voqelikni bilish usuli va tasvirlash shakli sifatida, umuminsoniy madaniyatning qismi sifatida ochib berib, insonning gumanitar madaniyatini rivojlatirishiga yordam berishi kerak. Matematik ta’limda integratsion jarayonlar bo‘lgandagina bu maqsadga erishish mumkin. Jamiyatning o‘sishi uchun o‘quv jarayonini shunday tashkillashtirish zarurki, o‘quv rejasini bajaribgina qolmasdan va berilgan muddatlarda barcha o‘quvchilarni bitirganlik to‘g‘risidagi diplomlar bilan ta’minlabgina qolmasdan, balki maktab hayotining birinchi kunlaridanoq o‘quvchilarga jamiyat oldida turgan odatiy va yangi muammolarni yechishga yangi yondashuvlar, yangi imkoniyatlar, yangi yo‘llarni izlashni odatlantirmoq kerak.

Maktab vazifasi quyidagidan iborat: yosh avlodga fikrlashni, o‘qishni va harakat qilishni o‘rgatish; insonning harakatlariga, uning ishiga oliy ijtimoiy maqsadlarni qo‘yishga va erishishga intilish beruvchi yaxlit ilmiy dunyoqarashni egallashga yordam berish. Bu vazifani hal etishda matematik ta’lim integratsiyasining roli nihoyatda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Jumaev E.M, Eshonqulova M. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyaning maqsad va mohiyati to‘g‘risida // Pedagogika. 1988. №–7. S. 8–11.
2. Mamadazimov M. Ta’limda integratsiya – davr talabi. // T.N.Qori Niyoziy nomli o‘zPFITI. "Umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirish istiqbollari"Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2020.
3. Браже Т.Г.Интеграция предметов в современной школе // Литература в школе. 1996. №5. С. 15–19.
4. Раёмов М. Формирование прикладных умений учащихся VII–IX классов общеобразовательных школ. Дисс. УзНИИПИ им. Т.Н.Кори-Ниязова. 2018.

Kimyo fanini talabalarga fanlararo bog‘liqlikni qamrab olgan holda o‘rgatishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish

Mengliyev I. [1], Muhammadiyeva L. [2]
[1] Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston;
mengliyev1982@mail.ru
[2]Termiz pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston;
lobarmuhammadiyeva@gmail.com

Boshqa fanlar sohasida bo‘lgani kabi kimyo fanini talabalarga fanlararo bog‘liqlikni qamrab olgan holda o‘rgatishda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Hozirda ilmiy yangiliklar ikki yoki undan ortiq fanlar kesimi doirasida yaxshi natijalar bermoqda va innovatsion ahamiyat kasb etib, tegishli sohadagi ishlab chiqarish korxonalariga tadbiq etish imkoniyatlarini bermoqda.Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qarorida [1] mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili“ Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan. Mazkur qarorda “Umumta’lim maktablaridagi kimyo va biologiya fanlarini o‘qitish sifati bugungi davr talablariga javob bermasligi, o‘qitish metodologiyasi va laboratoriyalar ma’nan eskirganligi, o‘qituvchilarning mehnatini munosib rag‘batlantirish mexanizmlari joriy qilinmaganligi alohida qayd etib o‘tilgan.

Shuningdek, o‘rta maxsus, professional, oliy ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda sohadagi ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanish borasida uzviy bog‘liqlik, samarali muloqot va hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan“ligi to‘g‘risidagi e’tirozli fikrlar bildirilgan.Ushbu qaror [1]da kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini tubdan oshirish,umumta’lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta’minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida bir qator vazifalar belgilangan.Ushbu vazifalar doirasida oliy ta’lim muassasalarining kimyo va biologiya ta’lim yo‘nalishlarida samarali o‘quv jarayonini tashkil etish, oliy ta’lim muassasalari kafedralariga biriktirilgan tayanch ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, professor-o‘qituvchilarni va iqtidorli talabalarni ta’lim jarayoniga jalb etish, mahorat darslari, to‘garaklar va yozgi maktablar tashkil etish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kimyo va biologiya fanlariga qiziqishi bo‘lgan o‘quvchilar uchun tajriba-sinov sifatida joriy etilayotgan tabiiy fanlar yo‘nalishidagi variativ o‘zgaruvchan o‘quv rejalarini bosqichma-bosqich o‘quv jarayonida foydalanishni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida tabiiy fanlar o‘quv dasturlarida amaliy mashg‘ulotlarning ulushini ko‘paytirish choralarini ko‘rish, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish nazarda tutilgan.Oliy ta’lim muassasalarining tabiiy fanlar ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning fanlararo bog‘liqlikni o‘rganish bo‘yicha kasbiy kompetentligini shakllantirishda axborot texnologiyalarini qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.Shu maqsadda ushbu tadqiqot ishida kimyo fanida uglevodorod molekulalarining topologik xossalarini axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida tadqiq etish orqali molekuladagi uglerodlar sonini, uglerod-uglerod aloqalari sonini hamda molekuladagi xalqalar sonini aniqlash metodikasi keltirilgan, bunda molekuladagi uglerod-vodorod bog‘liqliklari inobatga olinmaydi. Qo‘yilgan masalani hal etish quyidagi fanlar orasidagi fanlararo bog‘liqli o‘rganish bilan bevosita bog‘liq. Ushbu bog‘liqlik 1-rasmda keltirilgan.



Рис. 10: Kimyo ta’lim yo‘nalishida fanlararo bog‘liqlik sxemasi

Fanlararo bog‘liqlikni axborot texnologiyalari asosida o‘rganishda kimyo fani o‘qituvchisi keltirilgan barcha fanlar bo‘yicha kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab etilmaydi, ular faqat qaralayotgan jarayonni xarakterlovchi parametrlarning kompyuter dasturiga kiritiladigan dastlabki qiymatlari haqida hamda dasturning amalga oshirilishi natijasida olinadigan

parametrlarning qiymatlari va ularning mohiyati to‘g‘risida to‘liq tushunchalarda ega bo‘lishlari kifoya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori**

2. **Mengliyev I.A.** *Uglerod molekulalarining topologik xossalarini fanlararo bog‘liqlik va axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida tadqiq etish metodikasi.*Pedagogik mahorat – Buxoro 2021, №6, 192-196 c.

3. **Endryus Dj., Mak-Loun R.** *Matematicheskoye modelirovaniye.* M.: Mir, 1979.-280 s. *УДК 515.55*

Topologik fazolarning zichligi va lokal zichligini o‘qitishda ilmiy izlanishlar metodidan foydalanish

Muxamedkulova A. A.[1], Mamatov J. X.[2]
[1]Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Toshkent, Uzbekistan;
asiyadilzara@gmail.com
[2]Jizzax Politexnika instituti, Jizzax, Uzbekistan;
johansson_world@mail.ru

Ushbu ishda topologiik fazolarning zichligi va lokal zichligini o‘qitishda ilmiy izlanishlar metodidan foydalanish bo‘yicha to‘liq tavsiyalar hamda xulosalar haqida so‘z yuritiladi. Natijada esa bu metodlar talabalarni faol ishtirokchi qilish, mavjud bo‘lgan mavzuga doir ilmiy natijalardan samarali foydalana olish, mavzuni chuqurroq tushunishga undash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Topologiik fazolarning zichligi va lokal zichligini o‘qitishda ilmiy izlanishlar metodidan foydalanish oliy ta’lim tizimida samarali metodlardan biri hisoblanadi, chunki bu metod orqali nazariy tushunchalarni mavjud ilmiy natijalar yordamida nafaqat qayta bayon qilish, balki yangi natijalar kashf etish ham mumkin.

Endi biz quyidagi ketma-ketlikda to‘liq tavsiyalarni bosqichma-bosqich keltiramiz:

1. Maqsadni aniqlash - tadqiqot savollarini shakllantirish.

Maqsadni aniqlash: Zichlik va lokal zichlik kabi tushunchalarga turli xil yondashuvlar yordamida ta’rif berish . Ya’ni fazoda zich yoki lokal zich joylashgan eng kichik quvvatli to‘plamlarni aniqlash, to‘plamlarning zich va lokal zich bo‘lishlik shartlari, maxsus fazolarda (metrik, Tikhonov, Stone-Chech kompaktifikatsiyasi) zichlik va lokal zichlikni hisoblash. Metodni qo‘llashni qaysi tushunchani o‘rgatishga qaratishni aniq belgilab olish tavsiya etidali.

2. Fundamental nazariy bilim - ta’riflar va asosiy xossalar

Topologik fazolarning zichligi va lokal zichligiga aniq ta’riflar berilib, misollar yordamida tushuntiriladi va ularning muhim bo‘lgan asosiy xossalari isbotlari bilan keltiriladi. Bundan maqsad mavzuga doir mashq va masalalarning turli xil yechimlarini oldin mavjud bo‘lgan ilmiy natijalar yordamida bayon qilishdan iborat.

3. Metodologik usullar - isbotlash texnikalari va konstruktsiyalar

1. Konstruktsiya orqali misollar va qarshi misollar qurish;
2. Kardinal invariantlar yordamida taqqoslashlar tekshiruvi;
3. Funksional usul va akslantirishlar yordamidagi tasvirlar;
4. Topologik o‘yinlar va seleksiyon prinsiplar;
5. Algebraik va o‘lchovli usullar.

Adabiyotlar

1. **Diego Vizcaнno, Victor Vargas, Adriana Huertas** *Teaching of Topology and its Applications in Learning: A Bibliometric Meta-Analysis of the Last Years from the Scopus Database* Москва, ФИЗМАТЛИТ, 2006, 117.

2. **Tyflopoulos E., Haskins C., Steinert M.** T *opology-Optimization-Based Learning: A Powerful Teaching and Learning Framework under the Prism of the CDIO Approach.* Educ. Sci. 2021, 11, 348. https://doi.org/10.3390/educsci11070348

УДК 515.55

Topologik fazolarning salmog‘i va to‘rli salmog‘ini o‘qitishda algebraik metodlardan foydalanish

Muxamedkulova G. A.[1], Mamatov J. X.[2]
[1]Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, Toshkent, Uzbekistan;
asiyadilzara@gmail.com
[2]Jizzax Politexnika instituti, Jizzax, Uzbekistan;
johansson_world@mail.ru

Ushbu ishda topologiik fazolarning salmog‘i va to‘rli salmog‘ini o‘qitishda algebraik metodlardan foydalanish bo‘yicha to‘liq tavsiyalar hamda xulosalar haqida so‘z yuritiladi. Topologiik fazolarning turli salmoqlarini, xususan salmoq, to‘rli salmoq kabilarni o‘qitishda algebraik metodlardan foydalanish talabalarni faol ishtirokchi qilish, mavjud bo‘lgan mavzuga doir ilmiy natijalardan samarali foydalana olish, mavzuni chuqurroq tushunishga undash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Topologik fazolarning salmog‘i va to‘rli salmog‘i kabi kardinal invariantlarini o‘rganishda ilmiy algebraik metodlardan foydalanish bo‘yicha aniq faktlar va to‘liq tavsiyalarni keltirib o‘tamiz.

1. Asosiy tushunchalar.

1. Salmoq (weight) - bu fazoning eng kichik bazasining quvvati.

$w(X) = \min\{|\mathcal{B}| : \mathcal{B}$ - Xda baza$\}$.

2. To‘rli salmoq (network weight) - bu fazodagi eng kichik to‘rining (network) quvvati:

$nw(X) = \min\{|\mathcal{N}| : \mathcal{N}$ - Xda to‘r$\}$.

Ixtiyoriy topologik fazoning salmog‘i va to‘rli salmog‘i orasida har doim quyidagi munosabat o‘rinli: $nw(X) \leq w(X)$.

2. Algebraik metodlarning qo‘llanishi.

Topologik fazolarda salmoq va to‘rli salmoq kabi invariantlarni o‘rganishda quyidagi algebraik usullar samarali hisoblanadi:

1) Kardinal funksiyalarni algebraik tavsiflash.

$w(X)$ va $nw(X)$ ko‘pincha funktorlar va ob’ektlar orasidagi izomorfizmlar orqali o‘rganiladi. Masalan, agar $f : X \to Y$ uzluksiz sur’yektiv bo‘lsa, u holda quyidagi munosabatlar o‘rinli bo‘ladi: $nw(Y) \leq nw(X), \quad w(Y) \leq w(X)$.

2) Bo‘linmalar va qoplamalar nazariyasi.

Har qanday baza yoki to‘rni algebraik kombinatsiya sifatida ko‘rish mumkin: to‘g‘ri yig‘indi orqali fazoni turli komponentalarga ajratish.

Qoplamalar algebrasi - qoplamalarni kombinatorik struktura sifatida ko‘rib chiqish va ulardan minimal baza yoki to‘rning quvvatini hisoblash.

3) Filtrlar va ultrafiltrlar apparati.

Topologiyani filtrlar bilan tavsiflab, ularning ochiq, yopiq to‘plamlari sonini hisoblash orqali $w(X)$ va $nw(X)$ga baho beriladi.

Ultrafiltrlarning mavjudligi (Zorn lemmasi yordamida) ko‘pincha minimal quvvatni isbotlashga xizmat qiladi.

4) Algebraik topologiya bilan bog‘lash.

Ba’zi hollarda fundamental gruppa, fazolarning ko‘paytmasi yoki ko‘rsatkichli funktorlar orqali kardinal invariantlar yuqoridan yoki pastdan baholanadi. Masalan:

$$w(X \times Y) = \max\{w(X), w(Y)\}, \quad nw(X \times Y) = \max\{nw(X), nw(Y)\}.$$

5) Kombinator algebra va to‘plamlar nazariyasi.

$\triangle$-sistemalar, Morita tipidagi kombinator algebralar, hosil qiluvchi to‘plamlari yordamida minimal baza yoki to‘rning quvvatlari hisoblanadi.

Ayniqsa, CH (Continuum Hypothesis) yoki Martin aksiyasi kabi to‘plamlar nazariyasidagi qo‘shimcha gipotezalar ostida $w(X)$ va $nw(X)$ kabi invariantlarning nozik farqlarini o‘rganish mumkin.

Adabiyotlar

1. **Diego Vizcaнno, Victor Vargas, Adriana Huertas** *Teaching of Topology and its Applications in Learning: A Bibliometric Meta-Analysis of the Last Years from the Scopus Database* Москва, ФИЗМАТЛИТ, 2006, 117.

2. **Tyflopoulos E., Haskins C., Steinert M.** T *opology-Optimization-Based Learning: A Powerful Teaching and Learning Framework under the Prism of the CDIO Approach.* Educ. Sci. 2021, 11, 348. https://doi.org/10.3390/educsci11070348

KVADRAT FUNKSIYANINING ENG KATTA VA ENG KICHIK QIYMATLARIGA BO‘GLIQ BA’ZI MASALALARNI YECHISH USULLARI.

Qurbonov N.X.[1]

[1]Ter.DPI,v.b.dotsent.(PhD)., Termiz, O‘zbekiston; normurodqurbonov1958@gmail.com

Anotatsiya. Mazkur maqolada kvadrat funksiyani eng katta va eng kichik qiymatiga olib keladigan parametrik misollarni yechish usullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kvadrat funksiya, maksimum, minimum, absissa, ordinata, tenglama, parametr, grafik.

Kvadrat funksiya umumiy o‘ta maktab darsliklarida uchraydigan asosiy funksiyalardan biridir. $f(x) = ax^2 + bx + c, (a \neq 0)$ funksiya kvadrat funksiya deyiladi. Kvadrat funksiyani grafigi paraboladan iborat bo‘lib, $a > 0$ bo‘lsa, parabola tarmoqlari yuqoriga yo‘nalgan bo‘ladi, $a < 0$ bo‘lsa, parabola tarmoqlari pastga yo‘nalgan bo‘adi. Parabola uchini koordinatalari:

Absissasi: $x_0 = \frac{-b}{2a} = \frac{(x_1+x_2)}{2}$, bunda x_1 va x_2 kvadrat funksiyani nollari.


Ordinatasi: $f(x_0) = ax_0^2 + bx_0 + c = \frac{(4ac-b^2)}{4a}$.

Agar $a > 0$ bo‘lsa, $\min f(x) = f(x_0) = \frac{(4ac-b^2)}{4a}$ bo‘ladi.


Agar $a < 0$ bo‘lsa, $\max f(x) = f(x_0) = \frac{(4ac-b^2)}{4a}$ bo‘ladi.

Biz quyida ikki o‘zgaruvchili funksiyani qaraymiz, birinchi holda birinchi o‘zgaruvchini qiymatlarida bu fuksiyani eng kata va eng kichik qiymatlarini topamiz, ikkinchi o‘zgaruvchini parametr sifatida qaraymiz. Keyin, asl maqsadga o‘tgandan so‘ng paramerni asosiy o‘zgaruvchi sifatida qarab masalani yechimi tomon boramiz. Misollarga murojaat qilaylik.

1-misol. $\max\limits_{b} \min\limits_{a} (4a^2 - 12ab - 4ax + 5b^2 + 22x - x^2) = 56$ tenglikdan x ning qiymatini toping.



1-rasm



2-rasm

Yechish. 1)

$$y_1(a) = 4a^2 - 12ab - 4ax + 5b^2 + 22x - x^2 =$$
$$= 4(a - 1/2(3b + x))^2 - 4b^2 + 16bx - 2x^2.$$

Bu funksiya $a = 1/2(3b+x)$ bo‘lsa, eng kichik qiymati $\min\limits_a y_1(a) = -4b^2+16bx-2x^2$ ga erishadi.

2)

$$y_2(b) = -4b^2 + 16bx - 2x^2 = -4(b - 2x)^2 + 14x^2$$

dan ko‘rinadiki: $\max\limits_b y_2(b) = 14x^2$. U holda: $14x^2 = 56$ tenglama hosil bo‘ladi.Bundan: $x_{1,2} = \pm 2$.

2-misol. Quyidagi

$$\min_x(4x^2 + 4xy - y^2) = \max_y(-2x^2 - 4xy - 4y^2)$$

tenglik o‘rinli bo‘ladigan barcha $(x; y)$ nuqtalar to‘plamini tekislikda tasvirlang.

Yechish. 1)

$$y_1(x) = 4x^2 + 4xy - y^2 = 4(x + 1/2y)^2 - 2y^2$$

tenglik o‘rinli. $y_1(x)$ funksiya $x = -1/2y$ bo‘lsa, eng kichik qiymati $-2y^2$ ga erishadi, ya’ni $\min\limits_x y_1(x) = -2y^2$.

2)

$$y_2(y) = -2x^2 - 4xy - 4y^2 = -4(y + 1/2x)^2 - x^2$$

tenglik o‘rinli. $y_2(y)$ funksiya $y = -1/2x$ bo‘lsa, eng katta qiymati $-x^2$ ga erishadi, ya’ni $\max\limits_y y_2(y) = -x^2$ tenglik o‘rinli. U holda: $-2y^2 = -x^2$ tenglik kelib chiqadi. Bundan: $y = \pm 1/\sqrt{2}x$. (1-rasm).

3-misol. $y = \min\limits_a(a^2 - 2ax + 2x^2 - 3x)$ va $y = \max\limits_b(-b^2 + 2bx - x^2 + x)$ chiziqlar bilan chegaralangan soha yuzini toping.

Yechish. 1)

$$y = \min_a(a^2 - 2ax + 2x^2 - 3x)$$

chiziqni tenglamasi aniqlaymiz. $y = \min\limits_a(a^2-2ax+2x^2-3x) = \min\limits_a((a-x)^2+x^2-3x) = x^2-3x$. Demak, $y = x^2-3x$ kvadrat funksiyani grafigi tarmoqlari yuqorida yo‘nalgan paraboladan iborat.

2) $y = \max\limits_b(-b^2 + 2bx - x^2 + x) = \max\limits_b((-(b - x)^2 + x) = x$. $y = x$ ni grafigi koordinata boshidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqdan iborat. $y = x^2 - 3x$ parabola va y=x to‘g‘ri chiziqni kesishish

nuqtalari absisalarini aniqlaymiz. $x^2 - 3x = x$ tenglikdan $x^2 - 4x = 0$ tenglama hosil qilamiz. Bundan: $x_1 = 0, x_2 = 4$ larni topamiz.(2-rasm). U holda bu chiziqlar bilan chegaralangan soha yuzi:

$$S = \int_0^4 (x - (x^2 - 3x))dx = \int_0^4 (4x - x^2)dx = 10\frac{2}{3}.$$

Javob: $S = 10\frac{2}{3}$(kv.bir.).

Mazkur maqolada berilgan ma'lumotlardan o'quvchilar fanlar olimpiadasida tayyorlanishda foydalanishlari uchun tavsiya etamiz. O'quvchilarni bunday masalalarni yecha olishi matematikani chuqurroq o'rganishga undaydi.

Adabiyotlar

1. **Шарыгин И.Ф.** *Факультативный курс по математике. Решение задач Учебное пособие для 10 класса средней школы.* Москва. Просвещение-1989г.
2. **АзларовТ., Мансуров Х.** *Математик анализ.кисм 1.* Т.: ук.,1986.-408.б.
3. **Qurbonov N.X.** *Maxsus yo'l bilan yechiladigan algebraik masalalar.* Termiz. Surxon -nashr. 2021. 240.-b.
4. **Mirzaaxmedov M.A., Sotiboldiyev.** *O'quvchilarni matematik olimpiadalarga tayyorlash.* T.: Mumtoz so'z. - 2010.

UDC 378.091.3:514

Lecture Plan for the "Surfaces of the Second Order"Module

Safarov T. N.[1], Ashurmamatova Sh. I.[2], Ismoilov A. I.[3]
[1),2),3)]Termiz State University, Termiz, Uzbekistan;
[1)]tolqin.1986@mail.ru, [2)]s98973400@gmail.com, [3)]aslbeki477@gmail.com

In explaining "surfaces of the second order,"the role of pedagogical technologies is significant, as the teacher can achieve the objective with the help of applicable pedagogical technologies.

The objective of this lecture plan for the "Surfaces of the Second Order"module within the subject of "Geometry"is to introduce students to the topics included in this module and to develop their knowledge in this field.

Topic: General Equation of Second-Order Surfaces

Among the important surfaces related to second-order surfaces are hyperboloids [1], [2].

In teaching the subject of the general equation of second-order surfaces, it is necessary to form students' knowledge, skills, and competencies regarding the topic.

Assignments for the script of a review-and-summation lecture session on the topic of "The General Equation of Second-Order Surfaces."

Roll call is conducted in the group, and the topic and objective of the session are announced:

Topic: The General Equation of Second-Order Surfaces.

The objective of teaching this topic is to enable students to learn about subjects related to second-order surfaces, compare them with other surfaces, and develop their base of geometric knowledge.

To select the assignments to be given to students during the session, to check and evaluate the completed assignments, and to determine which student's opinion to listen to during discussions, an expert group consisting of 3 students is selected based on the proposals of the group's students.

During the session, the experts are given a number of freedoms:

* they call students to order;
* they motivate passive participants;
* they determine the examples to be given to the groups;
* they check and evaluate the written assignments completed by the students.

In this context, a precise and academic translation would be:

The teacher observes the students' work with the experts and provides feedback when needed.

The experts divide the group of students into three sub-groups. The maximum score for each correct and complete assignment is set at 1 point.

Assignment 1: The Method of Invariants for Simplifying the General Equation of Second-Order Surfaces.

